2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 169 (1768), 2026-yil 21-avgust, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

## AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASH BO‘YICHA USTUVOR VAZIFALAR BELGILANDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-avgust kuni Xorazm viloyati misolida mamlakatimizda aholi bandligini ta’minlash, daromadlarni oshirish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar taqdimoti bilan tanishdi.**

Davlatimiz rahbarining Xorazm viloyatiga tashrifi chog‘ida hududni kambag‘allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish bo‘yicha qator topshiriqlar berilgan edi.

Taqdimotda ushbu topshiriqlar ijrosini har bir mahalla kesimida ta’minlash, mavjud imkoniyatlarni aniq loyihalar va barqaror ish o‘rinlariga aylantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan rejalar ko‘rib chiqildi.

Joriy yilning o‘tgan davrida viloyatda 162 ming nafar aholining daromadi oshirildi, 29 ming kishi doimiy ishga joylashtirilib, 37 ming nafar fuqaroning norasmiy bandligi qonuniylashtirildi.

Kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash doirasida 28,9 mingta oiladagi 126,6 ming nafar aholiga 40 mingdan ziyod xizmat ko‘rsatildi. Jumladan, 12,4 ming kishi doimiy ishga joylashtirildi, 23,6 ming nafari tadbirkorlikka jalb qilindi, 3,3 ming kishiga moliyaviy ko‘mak ko‘rsatilib, 1,1 ming nafari kasb-hunarga o‘qitildi.

Natijada yil boshidan “Ijtimoiy reyestr”ga kiritilgan 29 mingta oiladagi 127 ming nafar aholining rasmiy daromadi va moddiy ahvoli yaxshilandi. Ushbu oilalar kambag‘allikdan chiqarildi. Viloyatda kambag‘allik darajasi yil boshidagi 6,7 foizdan 3,9 foizga pasaydi.

Ayni paytda viloyatda 39 ming nafar ishsiz fuqaro bor, 102 ming kishi mehnat migratsiyasida.

Bandlik sohasidagi asosiy masalalardan biri mavjud vakansiyalar bilan ish izlovchilarning kasbiy tayyorgarligi o‘rtasidagi tafovut ekani qayd etildi. Ayni paytda 50 mingdan ziyod vakansiya mavjud bo‘lsa-da, zarur malakaga ega kadrlar yetishmasligi sababli ularning bir qismi bo‘sh qolmoqda.

Davlatimiz rahbari kasb-hunarga o‘qitish tizimini qayta ko‘rib chiqish va uni mehnat bozori ehtiyojlari bilan uzviy bog‘lash zarurligini ta’kidladi.

O‘tkazilgan so‘rovlarda oliy ta’lim muassasalari talabalarining 63 foizi o‘qish jarayonida yetarli amaliy ko‘nikmalarni egallamayotganini qayd etgan. Shu bois, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarida amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish, oliy ta’lim tashkilotlarining mavjud imkoniyatlaridan kasbga o‘rgatishda keng foydalanish vazifasi qo‘yildi. Universitetlarda kunning ikkinchi yarmida talabalarning kasbiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish zarurligi ta’kidlandi.

Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha ishlarni yangicha tashkil etish, odamlarning mehnat va tadbirkorlikka munosabatini o‘zgartirish, shuningdek, ularning faolligi va tashabbuskorligini rag‘batlantirish muhimligi qayd etildi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta’minlash maqsadlariga jami 6,4 trillion so‘m yo‘naltirildi. Tijorat banklarining 2,1 trillion so‘mlik resurslari hisobidan mahallalardagi loyihalarga 1,5 trillion so‘m kredit ajratildi. Shu tariqa viloyatdagi barcha mahallalar moliyaviy resurslar bilan qamrab olindi.

Prezidentimiz banklarning ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirishdagi amaliy hissasi mahallalardagi natijalarda ko‘rinishi kerakligini ta’kidladi. Banklar hududlardagi imkoniyat va tashabbuslarni aniq biznes loyihalariga aylantiradigan “loyihalar fabrikasi” bo‘lishi zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Shuningdek, “mahalla yettiligi” va mahalla bankirlari faoliyati samaradorligini oshirish, ularning ishini aniq natijadorlik ko‘rsatkichlari asosida baholash masalalariga e’tibor qaratildi. Kambag‘allikni qisqartirishda ularning vazifalari, ish usullari va mas’uliyat doirasini belgilash bo‘yicha yangi mexanizmlarni ishlab chiqish topshirildi.

Taqdimotda yil yakuniga qadar 18 mingta kam ta’minlangan oiladagi 81 ming nafar aholini kambag‘allikdan chiqarish va 39 ming nafar ishsiz fuqaroni doimiy ish bilan ta’minlash rejalari bayon qilindi.

— Bular oddiy raqamlar emas. Har bir insonga alohida yondashib, uning imkoniyatlarini yaxshi bilishimiz, shundan kelib chiqib, munosib ish topib berishimiz kerak, — dedi Prezidentimiz.

Buning uchun sanoat, xizmat ko‘rsatish, turizm, transport, qishloq xo‘jaligi va qurilish sohalaridagi investitsiya loyihalari ishga solinadi. Mikrosanoat markazlarida 250 ta yangi korxona tashkil etilib, mahalla bankirlari ishtirokidagi loyihalar kengaytiriladi, yangi ish o‘rinlari yaratish va tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish choralari ko‘riladi.

Parrandachilik, chorvachilik, baliqchilik, mebel ishlab chiqarish, issiqxona xo‘jaligi va o‘simlikchilik yo‘nalishlarida 36 ta kooperatsiya tashkil etilib, ularga 201 ta mahalladagi 15,8 mingta kam ta’minlangan oila jalb qilinadi.

Shuningdek, 12 ta tayanch va 38 ta yondosh mahallada 70 ta “lokomotiv” loyiha amalga oshirilib, 1,1 mingta ish o‘rni yaratiladi. Tadbirkorlik loyihalari uchun 650 milliard so‘m ajratilib, 2,5 mingta mikroloyiha ro‘yobga chiqariladi.

Yangiariq tumanidagi Shixbog‘i mahallasini tayanch mahalla sifatida rivojlantirish rejasi ham muhokama markazida bo‘ldi. U bilan birga Qarmish, Sherobod va Kattabog‘ mahallalari qamrab olinadi. Ushbu mahallalarda jami 18,2 ming nafar aholi istiqomat qiladi, 319 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmoqda.

Tayanch va unga tutash mahallalarda sanoat zonasi, mikrosanoat markazi, zamonaviy bozor va xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish, intensiv bog‘ barpo qilish, chorvachilik va parrandachilik majmualarini ishga tushirish mo‘ljallangan. Shuningdek, ichki yo‘llar, piyodalar yo‘lagi, elektr va suv ta’minoti infratuzilmasi yaxshilanadi.

Xorijiy konsalting tashkilotlari ishtirokida mazkur hududni rivojlantirishning master-rejasi ishlab chiqilib, mahalliy loyihachilarning malakasi oshiriladi. Mazkur choralar orqali 1,5 mingta barqaror ish o‘rni yaratish, aholi daromadini 20-30 foizga oshirish hamda hududni kambag‘allik va ishsizlikdan xoli qilish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari ehtiyojmand aholi qatlamlari bilan ishlashning amaldagi mexanizmlari va metodologiyasini to‘liq qayta ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidladi. Mamlakatimizda kambag‘allikka qarshi kurashish siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha takliflar tayyorlash hamda ularni alohida videoselektor yig‘ilishida muhokama qilish belgilandi.

**O‘zA**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING TADBIRKORLAR BILAN OCHIQ MULOQOTI XIVA, 2026

## TADBIRKORNI QO‘LLAB-QUVVATLAYDIGAN KOMPLEKS TIZIM YARATILADI

**Prezidentimizning Xiva shahridagi Kongress-xoll majmuasida 25 mingga yaqin tadbirkor bilan o‘tkazgan ochiq muloqoti nafaqat mamlakatimiz, balki xorijda ham katta qiziqish uyg‘otdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ko‘pdan buyon hayajon bilan kutilgan ushbu anjumanni odatdagidek an’anaviy uchrashuv emas, balki davlat va biznes o‘rtasidagi ishonchli hamkorlikning yangi bosqichi sifatida baholash mumkin.**

*Davomi 2-betda*

**O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligiga**




# YANGI O‘ZBEKISTON: SHIDDATLI EVRILISH VA REAL NATIJALAR MANZILI

**“Yangi O‘zbekiston” gazetasining ijodiy jamoasi vohaning eng so‘lim go‘shalaridan biri — Qashqadaryo viloyatida!**

**“Yangi O‘zbekiston: Shiddatli evrilish va real natijalar manzili!”** nomli loyihaning bu galgi tashrif manzili o‘zining turfa tabiati, ulug‘vor tog‘lari, bepoyon dashtlari bilan mashhur bo‘lgan Qashqadaryo viloyati bo‘ldi.

Ma’lumki, ushbu loyiha bilan mamlakatimizda erishilayotgan natijalar tahlili orqali qisqa vaqtda qanday katta tarix yaratilayotganini ochib berishni maqsad qilganmiz. Shu niyatda “Yangi O‘zbekiston” gazetasining bitta soni to‘liq ushbu hududning o‘n yillik taraqqiyot yo‘liga bag‘ishlanadi.

Buning uchun “Yangi O‘zbekiston” gazetasining ijodiy jamoasi Qashqadaryo bo‘ylab olis qishloq va ovullardagi o‘zgarishlar, shaharlarning yangilangan qiyofasi bilan yaqindan tanishdi. Ziyolilar, yoshlar, faollar va oddiy insonlar bilan suhbatlashib, ularning dil so‘zlariga quloq tutib, quvonchiga sherik bo‘ldi. Shu asosda real hayotiy hikoyalar orqali islohotlar ko‘lamini ochib berishga harakat qilindi.

Bir so‘z bilan aytganda, ijodiy jamoamiz Qashqadaryo viloyatida bo‘lib, katta taassurotlar bilan qaytdi. Safar hayajonli taassurotlar va quvonchli voqealarga boy bo‘ldi. Mamlakatimizdagi izchil islohotlarni qashqadaryoliklar hayotida ko‘rib, ko‘nglimiz faxrga to‘ldi.

Uzoq yillar davomida Qashqadaryoga faqat paxta yetishtiradigan hudud sifatida qarab kelindi. So‘nggi yillardagi islohotlar sabab chorvachilikda ham viloyat salohiyati oshib, yuqori natijalarga erishilmoqda. Ishlab chiqarish sohalari kengayib, turizm, hunarmandchilik rivojlandi. Xizmat ko‘rsatish sohasi tubdan yaxshilandi. Ayniqsa, aholini ichimlik suv bilan ta’minlashda katta natijaga erishildi. Yillar davomida suvni olisdan tashib ichgan qashqadaryoliklarning xonadoniga obihayot kirib bordi. Bunday o‘zgarishlarni sanab oxiriga yetib bo‘lmaydi. Oddiy misol, bir-ikki oila o‘z holida dehqonchilik qilib yurgan hudud bugun dunyo bozorida o‘z brendiga ega mashhur manzilga aylandi.

Prezidentimizning tashabbusi asosida Ko‘kdalada yetishtirilayotgan tarvuzlar ertapisharligi, shirinligi bilan xorij bozoridan munosib o‘rin egalladi. Natijada qanchadan-qancha yurtdoshimiz ishli bo‘ldi.

Umid qilamizki, Qashqadaryo viloyatidagi o‘zgarishlarga bag‘ishlangan bugungi tahliliy maqolalar orqali ushbu zamindagi islohotlar ko‘lamini anglab, ularning quvonchini yurakdan his etasiz.

**Tahririyat**

# QASHQADARYO: XOMASHYO HUDUDIDAN BILIM VA YUQORI TEXNOLOGIYALARGA TAYANGAN IQTISODIYOT SARI

## Qashqadaryo viloyati hokimi Murotjon AZIMOV bilan “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari bosh muharriri Salim DONIYOROV suhbati

**Bugungi shiddatli islohotlar davrida har bir hududning taraqqiyot yo‘nalishi mavjud resurslar bilan kifoyalanib qolmay, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan zamonaviy iqtisodiy tizimga o‘tishni taqozo etmoqda. Ilgari xomashyo bazasi sifatida qaralgan Qashqadaryoda so‘nggi yillarda kechayotgan o‘zgarishlar drayver sohalarni kengaytirish, agrar tarmoqda suv va resurs tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash yo‘nalishlarida yangi bosqichga ko‘tarildi. Yalpi hududiy mahsulotning muttasil o‘sishi, sanoat tarkibida to‘qimachilik va qurilish materiallari ulushining ortishi hamda eksport geografiyasining kengayishi hududning iqtisodiy imkoniyatlari naqadar kengligini namoyon qilmoqda.**

*Viloyatda qabul qilingan maqsadli manzilli dasturlar, yangi sanoat va erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi, shuningdek, turizm salohiyatini kompleks ishga solishga qaratilgan loyihalar mahalliy aholi turmush farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Muhimi, mahallalarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, “bir kontur — bir mahsulot” tamoyili asosida to‘liq ishlab chiqarish va sotuv zanjirining yo‘lga qo‘yilishi kambag‘allikni qisqartirishda, barqaror ish o‘rinlarini yaratishda o‘ziga xos samaradorlikni ko‘rsatyapti. Ta’lim va raqamlashtirish, yoshlarni zamonaviy kasblarga yo‘naltirish hamda aholini toza ichimlik suv va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlashga qaratilgan tizimli tashabbuslar viloyatning kelajakdagi istiqbollarini belgilab bermoqda.*

*Vohada amalga oshirilayotgan ana shu keng qamrovli islohotlarning mazmun-mohiyati, sanoatlashtirish, agrar tashabbuslarning natijadorligi hamda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar ijrosini atroflicha yoritish maqsadida “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari bosh muharriri Salim Doniyorov Qashqadaryo viloyati hokimi Murotjon Azimov bilan suhbatlashdi.*

**— Prezidentimiz joriy yilning 10-mart kuni Qashqadaryo viloyatini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazgan yig‘ilishda hududda ishga solinmagan katta iqtisodiy salohiyat mavjudligini ta’kidlab, investitsiya, sanoat, qishloq xo‘jaligi va bandlikni oshirish bo‘yicha aniq vazifalarni belgilab berdi. Bugun ushbu vazifalar ijrosida qaysi yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda?**

— Prezidentimiz Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida shunday fikrni alohida ta’kidlagan edi: **“Biz o‘zgarishlarni kutib yashamaymiz, aksincha, ularni o‘zimiz, o‘z aql-zakovatimiz va mas’uliyatli mehnatimiz bilan yaratamiz”.** Bu tamoyil ko‘zlagan marralarimizga yetishimizda asosiy dasturilamalimiz bo‘lmoqda. Yurtimizdagi yangilanishlar, islohotlar bugun qashqadaryoliklar hayotida ham o‘z ifodasini topmoqda.

Avvalo, suhbatimizni oxirgi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning viloyatimizdagi samaralari haqidagi ayrim raqamlardan boshlasak. Viloyat yalpi hududiy mahsuloti oxirgi 5 yilda 1,5 baravarga o‘sib, 100 trillion so‘mdan oshdi. Qishloq xo‘jaligi, sanoat, qurilish, xizmatlar yo‘nalishlarida ham o‘sishlar kuzatildi.

Joriy yilning birinchi yarim yilligi natijalariga ko‘ra viloyat iqtisodiyoti 8,4 foiz o‘sdi. Yalpi hududiy mahsulot hajmi ham 55,7 trillion so‘mni tashkil qildi. Yil yakuni bilan bu ko‘rsatkichni 120 trillion so‘mga yetkazish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab olganmiz.

Sanoat ishlab chiqarish ham 8,3 foiz o‘sdi. Elektrotexnika sohasida o‘sish 184, kimyo sohasida 143, mebelsozlikda 130, farmatsevtikada 119, to‘qimachilikda 116 va qurilish sanoatida 110 foizni tashkil qildi. Birgina misol, Qarshi shahridagi “Alp texno-servis” korxonasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 90 milliard so‘mlikdan ko‘p elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqardi va bu ko‘rsatkich 19 karraga oshdi. Bu mahsulotlar to‘liq eksportga yo‘naltirilmoqda. Korxona birinchi yarim yillikda 13 million dollarlik eksportni amalga oshirdi.

“Qarshi Conch Cement” zavodi ham qariyb 600 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqardi, o‘sish sur’ati 130 foizni, eksport hajmi 11 million dollarni tashkil etdi. Joriy yilning o‘tgan 6 oyida asosan importni qisqartirishga qaratilgan 962 milliard so‘mlik 60 ta loyihamiz ishga tushirildi. Bundan tashqari, 110 ta korxona faoliyati tiklanib, shuning hisobidan qariyb 32 milliard so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Ayni paytda viloyatimizda Islohotlar shtabi samarali faoliyat olib bormoqda. Shtab chet ellik investorlar bilan viloyat tadbirkorlari muloqotini yo‘lga qo‘yib, juda katta imkoniyat va tashabbuslar borligini aniqlayapti. Yuqorida siz qayd etgan yig‘ilishda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, joriy yilning 13-mart kuni Prezidentimizning Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha “Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Davlatimiz rahbari qaror bilan viloyatimizni rivojlantirish uchun 1,4 trillion so‘m mablag‘ ajratib berdi. Natijada viloyatimizning barcha tarmoqlarida yangi o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur qaror viloyatimiz uchun yangi taraqqiyot bosqichini boshlab beradigan muhim dastur hisoblanadi.

Jumladan, yalpi hududiy mahsulot o‘sishini ta’minlash, investitsiyalar hajmini 3,5 milliard, eksportni 1 milliard dollarga yetkazish kabi aniq maqsadlar bilan ishlayapmiz.

**— Qashqadaryo tabiiy resurslarga boy hudud. Endi asosiy maqsad xomashyo emas, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan ishlab chiqarishni rivojlantirishdan iborat. Bu borada viloyatda qanday yangi sanoat loyihalari amalga oshirilmoqda?**

— Yaqin yillarda ham Qashqadaryo viloyati xomashyo bazasiga aylanib qolgan hududlardan biri edi. Viloyatimizda ko‘proq neft-gaz korxonalariga ko‘z tikib qolingandi. Bilasiz, vohamizda respublikadagi eng ko‘p paxta, g‘alla, pilla, chorvachilik mahsulotlari yetishtiriladi. Lekin bu yo‘nalishda faqat paxta zavodlaridan boshqa korxona yo‘q edi.

Prezidentimiz olib borayotgan oqilona siyosat tufayli viloyatimiz sanoatining asosiy mazmuni tubdan o‘zgardi, ya’ni maqsad mahalliy xomashyoni tayyor mahsulotgacha qayta ishlash, qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish, import o‘rnini bosish va eksportbop mahsulot turlarini ko‘paytirishdan iborat.

To‘qimachilik viloyat sanoatining asosiy drayver yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda 2017-yilda 1,3 trillion so‘mlik to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2025-yil yakuni bilan bu ko‘rsatkich 9,5 barobarga oshib, 12,4 trillion so‘mga yetdi. Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan 459 ta to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonasida 101 ming tonna ip-kalava, 25,4 million kvadrat metr ip-gazlama, 15,5 ming tonna mato, 100 million donaga yaqin tayyor trikotaj ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilgan. To‘qimachilikning viloyat sanoatidagi ulushi 26 foizni tashkil etmoqda va yil yakuni bilan 30 foizga yetkaziladi. Bugungi kunda viloyatda paxta xomashyosidan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan zanjir yaratilgan. Sohada qator yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu borada viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat zonalari katta ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, “Sulton Tex Group” MCHJ tomonidan qiymati 120 million dollar bo‘lgan 3500 ta ish o‘rniga ega, suvni isrof qilmaydigan, O‘zbekistondagi unikal mato, tayyor kiyim-kechak, gigiyenik vositalar ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyihaning keyingi bosqichini mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida ishga tushirish ko‘zda tutilgan.

*Davomi 3-betda*

# TADBIRKORNI QO‘LLAB-QUVVATLAYDIGAN KOMPLEKS TIZIM YARATILADI

**Munosabat**

**Ochiq muloqot mamlakatimizda biznesni rivojlantirishga turtki beruvchi yangi, mukammal institut, samarali mexanizm sifatida shakllandi. Bu galgi samimiy muloqotda tadbirkorlar ko‘targan masalalar asosida besh ustuvor yo‘nalish bo‘yicha yangi tashabbuslar e’lon qilindi.**



**Aktam HAITOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi fraksiyasi rahbari**

Boshlanishi 1-betda

Ushbu muloqot mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rag‘batlantirish izchil hamda ortga qaytmas siyosatga aylanganini yana bir bor namoyon etdi.

Davlatimiz rahbari yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida o‘ziga xos lokomotiv vazifasini bajarayotgan 1 million 200 minglik biznes hamjamiyati vakillarini Tadbirkorlar kuni bilan samimiy qutladi va kelgusidagi ishlariga ulkan muvaffaqiyat tiladi. Bundan besh yil avval tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o‘tkazish an’anasi yo‘lga qo‘yilganidan buyon biznes rivojiga to‘siq bo‘lgan minglab masalalarga qonuniy va asosli yechimlar topilganiga urg‘u berar ekan, ushbu sohaga oid 84 ta qonun, 861 ta farmon va qaror qabul qilinganini alohida ta’kidladi.

— Nima uchun? Tadbirkorlarimizga sharoit yaratib, yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish, odamlarimizni uzoqqa bormasdan, mahallasining o‘zida daromadli qilish uchun, — dedi Prezidentimiz.

E’tiborli jihati, bugun jahondagi murakkab vaziyatga qaramay, joriy yilning birinchi yarmida O‘zbekiston iqtisodiyoti 8,5 foiz o‘sgani, shuningdek, xalqaro reyting agentliklari mamlakatimizning suveren kredit reytingi yanada yaxshilanayotganini e’tirof etgani barchamizni quvontiradi. Davlatimiz rahbari bu kabi ulkan natijalar, eng avvalo, tadbirkorlar bilan yelkama-yelka amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi ekanini qayd etdi.

Ilk muloqotdan buyon o‘tgan davr oralig‘ida tadbirkorlarning minglab tashabbuslari qonunchilik hujjatlarida, biznesni qo‘llab-quvvatlovchi yangi tuzilmalar ochilganida va boshqa ijobiy o‘zgarishlarda o‘z ifodasini topgani bu yondashuvning amaliy isbotidir.

Jumladan, o‘tgan besh yilda biznes uchun ajratilgan kredit portfeli qariyb 3 karra oshib, 450 trillion so‘mga yetdi. Tadbirkorlar 650 trillion so‘mlik soliq va bojxona imtiyozlaridan foydalandi. Ko‘plab biznes vakillari xorijiy banklardan o‘z loyihalariga mustaqil ravishda 1 milliard dollar jalb qildi. Shuningdek, korxonalarning asosiy kapitalga investitsiyasi 3 karra ko‘payib, 363 trillion so‘mga yetdi. Sanoati 100 million dollardan ziyod tumanlar soni 66 tadan 116 taga ko‘paydi. Biznesini mahallada boshlab, yurtimiz bo‘ylab o‘nlab filiallarga ega tadbirkorlar 550 dan, milliy brendini yaratganlar 300 dan oshdi.

Shuningdek, qo‘shilgan qiymat solig‘iga o‘tish chegarasi 1 milliard so‘mdan 5 milliard so‘mga oshirildi. Kafe va restoranlarga 100 milliard so‘m QQS “keshbek” sifatida qaytarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga “nol” stavka joriy qilingani hisobiga 400 milliard so‘m fermerlar hisob raqamida qoldi. Jahon bankining investitsiya va ishbilarmonlik muhiti bo‘yicha hisobotida O‘zbekiston 31-o‘rinni egalladi...

Bu raqamlar davlatning biznesga yondashuvi “ko‘proq soliq undirish”dan “tadbirkorni o‘stirish, aylanmasini kengaytirish orqali iqtisodiy bazani mustahkamlash” tamoyiliga o‘tayotganidan dalolat beradi.

Ochiq muloqot mamlakatimizda biznesni rivojlantirishga turtki beruvchi yangi, mukammal institut, samarali mexanizm sifatida shakllandi. Bu galgi samimiy muloqotda tadbirkorlar ko‘targan masalalar asosida besh ustuvor yo‘nalish bo‘yicha yangi tashabbuslar e’lon qilindi.

Birinchi yo‘nalish tadbirkorlik uchun barqaror o‘sish trayektoriyasini ta’minlashdan iborat. Mazkur tashabbus startaplar va rivojlanayotgan biznesning mablag‘ga ehtiyoji, garov ta’minotining yetishmasligi, ayrim byurokratik omillar hamda biznesni yuritishda tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi mukammal emasligi sababli yuzaga keldi. Bu tashabbus amalga oshishi tufayli tadbirkorlikni kompleks qo‘llab-quvvatlaydigan yagona ekotizim yaratiladi. Sun’iy intellekt va yengillashtirilgan kreditlar evaziga yangi bizneslarni yo‘lga qo‘yish osonlashadi.

Prezidentimizning “Tadbirkorni birinchi qadamidan katta biznesga aylangunicha boshidan oxirigacha qo‘llab-quvvatlaydigan kompleks tizim yaratamiz” degan so‘zlari barchamizni quvontirdi.

Hududlarda biznes imkoniyatlarini oshirish ikkinchi yo‘nalish sifatida belgilanmoqda. Yer-mulk olish jarayoni “tayyor paket” tizimi orqali tezlashishi, aylanma mablag‘ tejalishi mahalliylashtirish hamda ishlab chiqarish hajmi ortishiga xizmat qiladi.

Asosiysi, qolgan uchta yo‘nalish bo‘yicha belgilab berilgan barcha vazifalar ham, birinchi navbatda, tadbirkorlar manfaati yo‘lida xizmat qiladi. Masalan, keyingi yillarda mamlakatimizda raqobatbardoshlikni va mehnat unumdorligini yanada oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, xususiy sektorga tashqi investitsiyalarni ko‘proq jalb qilish va zamonaviy mutaxassislar tanqisligini bartaraf etish ehtiyoji vujudga keldi. Davlatimiz rahbari tomonidan “sun’iy intellekt — boshqaruv samaradorligi — yangi investitsiyalar” ekotizimini yaratish vazifasi belgilangani ana shu kamchiliklarga barham beradi.

Prezidentimizning eksport salohiyatini oshirish va milliy brendlarni tashqi bozorlarga olib chiqishga oid tashabbusi esa korxonalar faoliyatiga sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan boshqaruv integratsiya qilinishi hisobiga daromadlar ortishi, mahalliy kompaniyalar xalqaro kapital bozoriga chiqib, milliardlab dollar jalb etish imkoniga ega bo‘lishi hamda yuz minglab yoshlar zamonaviy, yuqori daromadli kasblarni egallashiga yo‘l ochib beradi.

Turli nazorat organlari tomonidan tadbirkorlar faoliyati takroriy tekshiruvlar o‘tkazilishi, katta moliyaviy jarimalar va litsenziyalash-ruxsat berish jarayonidagi ba’zi byurokratik bosimlar beshinchi — biznesga ma’muriy bosimni keskin kamaytirish tashabbusiga turtki berdi deyish mumkin. Tez orada kichik biznes uchun 3 yillik moratoriy joriy qilinishi, “sukut — rozilik” tamoyilining kuchga kirishi, jarimalarning kamaytirilishi va boshqa yengilliklar biznes uchun xotirjam, erkin va shaffof muhit yaratishga xizmat qiladi.

**“Ushbu hayotiy tashabbuslar tadbirkorlar uchun g‘oyat dolzarb bo‘lib turgan masalalarni hal qilishga qaratilgan. Ular kichik biznesga yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. O‘rta biznesni rivojlantirishga turtki beradi. Qisqasi, tadbirkorlarga yangi marralarni zabt etish uchun zamin hozirlaydi.**

Muloqotda ilgari surilgan tashabbuslar tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash va xususiy sektorning iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlashda juda muhim. Zero, tadbirkor uchun yaratilgan har bir qulaylik — yangi ish o‘rni, barqaror daromad va mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti uchun mustahkam zamin demakdir.




**Shu kunlarda juda xursandman. Davlatimiz rahbarining tegishli farmoniga ko‘ra, “Shuhrat” medali bilan taqdirlandim. Bu men uchun mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi shodiyonasi oldidan katta tuhfa bo‘ldi. Kichik mehnatimizni ardoqlab ko‘kka ko‘targan, barcha sharoitlarni yaratib berib, doimiy e’tibor, qo‘llab-quvvatlov ko‘rsatayotgan Prezidentimizga chuqur minnatdorlik bildiraman. Tadbirkorligimdan g‘ururlandim.**

# HAR BIR IMTIYOZ – IMKONIYAT



**Faxr**

Salkam 37-yildan buyon tadbirkorman. “Tikuvchi Anoragul” MCHJda milliy hunarmandlik mahsulotlarini ishlab chiqaramiz. Shuning ortidan o‘nlab xotin-qizlar bandligini ta’minlaganmiz. Tadbirkorlik bilan bir vaqtda “Hunarmand” uyushmasining Shahrisabz shahri bo‘limiga rahbarlik qilib kelaman. Faoliyatimning asosiy qismi milliy mahsulotlarni ishlab chiqarib, mahalliy bozorlarda ommalashtirish, jahon bozorlarida keng targ‘ib qilishga qaratilgan.

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan bo‘lib o‘tgan bu galgi uchrashuvi ham biz uchun katta bayramga aylandi. Har yili shu ochiq muloqotni intiqib kutamiz. Avvalo, davlatimiz rahbari bilan uchrashuv, qolaversa, beriladigan yangi imtiyozlar biznes egalari faoliyatidagi katta o‘zgarishlar, rivojlanishlarga yo‘l ochadi.

Bu gal ham ko‘plab imtiyozlar haqida gapirildi. Ularning aksariyati mening faoliyatimda ham qo‘l keladi. Masalan, mehmonxonalar ochishga subsidiyalar ajratilishi katta imkoniyatlardan biri. Chunki o‘zimning ham 10 xonali kichik mehmonxonam bor. Bu yerda o‘nlab mehmonga xizmat ko‘rsatamiz. Shu yo‘nalishda ham faoliyatimizni kengaytirish harakatidamiz. Shahrisabz turizm shahri bo‘lgani bois, sayyohlar oqimi kundan kunga oshib boryapti. Mehmonxonalar, xizmat ko‘rsatish sohalariga talab katta. Qolaversa, sayyohlarning milliy hunarmandchilik mahsulotlariga qiziqishi yuqori. Shu bois, sayyohlar uchun mehmonxona xizmatlarini kengaytirib, milliy hunarmandchilik mahsulotlari savdosi orqali madaniy merosimiz, an’analarimizni targ‘ib qilishga intilyapmiz. Bu borada berilayotgan subsidiyalar biz uchun navbatdagi yengillikdir.

Meni quvontirgan yana bir muhim jihat — davlatimiz rahbarining kadrlar tayyorlash va o‘qitish masalasiga alohida e’tibor qaratgani bo‘ldi. Ochig‘i, bu — tadbirkorlarni eng ko‘p qiynaydigan masalalardan. O‘zim ham 20 ta tikuv mashinasi ishlataman, lekin bularni tuzatadigan mutaxassis topilmayapti. Keksa hunarmandlarimiz deyarli yo‘q. Yoshlar orasida esa tikuvchi hunarmandlarni topish ancha qiyin. Bu borada o‘qitishni yo‘lga qo‘yadigan tadbirkorlarga qator yengilliklar beriladi. Nasib bo‘lsa, o‘zim ham texnikum ochib, yoshlarni milliy hunarmandchilik va boshqa sohalarda o‘qitishni niyat qildim.

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan bu galgi uchrashuvi Xorazm viloyatida bo‘layotgani ham alohida ahamiyatli. Ochig‘i, Xivaga birinchi marta kelishim. Xuddi davlatimiz rahbarining o‘zi bizni bu yerga taklif qilgandek, mehmondek his qilyapmiz o‘zimizni. Bir necha kundan buyon shu yerdamiz va tarixiy shahar go‘zalliklarini tomosha qilib, yurtimizdagi shiddatli rivojlanishlardan faxrlanyapmiz. Tadbirkorlarning o‘zaro muloqoti uchun ham qulay fursat bo‘ldi. Bir-birimiz bilan fikr almashib, hamkorlik o‘rnatyapmiz.

Uchrashuvdan juda katta taassurot va hayajon bilan chiqdim. Bu yerda eshitganlarimni tezroq oila a’zolarim, yaqinlarim, do‘stlarimga aytib berishga oshiqyapman. Yuragim quvonchdan hapqirib uryapti. Yangi O‘zbekistonimizga, bizni doim qo‘llab-quvvatlab, yonimizda turgan Prezidentimizga ko‘z tegmasin.

**Gulnora CHORIYEVA,**
**“Tikuvchi Anoragul” xususiy korxonasi rahbari, “Shuhrat” medali sohibi**

# E’TIROF – ULKAN MARRALARGA CHORLOV

**Tong yorishishi bilan dalaga kirib kelgan dehqonning niyati bitta — ona zamin bag‘riga qadalgan har bir niholni asrab-avaylash, mehnatini hosilga aylantirib, el dasturxoniga tortiq qilish. Zero, yer bilan tillashayotgan insonning har bir qadami ortida yurt farovonligi mujassam.**

Bugun mamlakatimizda fermer va tadbirkorlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ana shu ezgu maqsadlarni yangicha mazmun bilan boyitmoqda. Tadbirkorga ishonch bildirish, tashabbusini qo‘llab-quvvatlash, mehnatini munosib rag‘batlantirish yurtimizdagi islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu esa, o‘z navbatida, har bir mulkdorni yanada katta maqsadlar sari undamoqda.

Prezidentimizning farmoyishiga ko‘ra, “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanganim kutilmagan voqea bo‘ldi. Bu men uchun alohida sharaf va katta mas’uliyatdir. Ushbu yuksak e’tirofni nafaqat o‘z mehnatimga, balki fermer xo‘jaligimizda fidokorona mehnat qilayotgan jamoamizga, umuman, qishloq xo‘jaligi sohasida mehnat qilayotgan minglab yurtdoshlarimizga bildirilgan yuksak hurmat ifodasi, deb qabul qilaman.

Mana, o‘n yildirki, jamoamiz a’zolari har yili paxta va g‘alladan yuqori hosil olib, rejani ortig‘i bilan bajarib kelyapti. Bu yil 700 gektar maydonga “Xitoy-57” g‘o‘za navi ekildi. Ayni paytda qo‘shqator usulda ekilgan g‘o‘zalarimiz baravj rivojlanmoqda. 200 gektar maydonda ekinlar tomchilatib sug‘orish texnologiyasi asosida parvarishlanyapti. Bu kabi zamonaviy yondashuvlar yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish hamda hosildorlikni yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Bugun xo‘jaligimizda 50 ta doimiy ish o‘rni ochilgan. Ellikdan ziyod qishloq xo‘jaligi texnikasiga egamiz. “Yangi Arnasoy Aziz texnikasi” MCHJga qarashli texnika saqlash markazimizdagi mashina va agregatlar shartnoma asosida boshqa fermer xo‘jaliklariga ham xizmat ko‘rsatmoqda. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligimizda 60 bosh naslli qoramol, 300 bosh parranda boqilmoqda. Ikki gektar maydonda baliqchilik yo‘lga qo‘yilgan.

Bularning barchasi, avvalo, yurtimizda tadbirkorlik uchun yaratilgan imkoniyatlar samarasidir. Davlatimiz tomonidan fermer va tadbirkorlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga ko‘maklashish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun sharoit yaratilayotgani natija bermoqda.

Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan uchrashuvida bildirilgan fikrlar ham bizga katta kuch va ishonch bag‘ishladi. Unda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, ishbilarmonlarni qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqish, biznes egalarining muammolarini joyida hal etish, yangi loyihalar va tashabbuslarga keng yo‘l ochish zarurligiga alohida e’tibor qaratilgani biz, mulkdorlar uchun muhim dasturulamaldir.

Ayniqsa, tadbirkorlikni faqat daromad manbai emas, balki yangi ish o‘rinlari, aholi farovonligi, hududlar taraqqiyoti va mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishning muhim omili sifatida ko‘rish zarurligi zimmamizga yanada katta mas’uliyat yuklaydi. Bugun tadbirkorga bildirilayotgan ishonch va yaratilayotgan imkoniyatlarga munosib javob berish, yangi loyihalarni hayotga tatbiq etish — eng muhim vazifamiz. Fermer va tadbirkorlar uchun berilayotgan yangi imtiyozlardan foydalangan holda qishloq xo‘jaligida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshirish, qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish, ish o‘rinlari ochishga yanada jiddiy e’tibor qaratamiz.

“Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni men uchun erishilgan marra emas, aksincha, yangi maqsadlar sari dadil intilishga da’vatdir. Davlatimiz rahbariga tadbirkor va fermerlarga qaratayotgan yuksak e’tibori, ishonch va qo‘llab-quvvatlovi uchun samimiy minnatdorlik bildiraman.

Bundan buyon ham yurtimiz dasturxonini yanada to‘kin qilish, yerdan unumli foydalanish, sifatli va raqobatbardosh mahsulot yetishtirish, ish o‘rinlari ochish hamda mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish uchun bor kuch va imkoniyatimizni safarbar etamiz.

**Nuriddin ABJALOV,**
**“Paxtakorlik Diyorjon dalasi” fermer xo‘jaligi rahbari, “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni sohibi**

# UCHRASHUVDA BILDIRILGAN TAKLIFLARNI IJOBIY QABUL QILDIK

**Davlatimiz rahbari bilan uchrashuvda birinchi marta ishtirok etgan ishbilarmonlarda bir fikr uyg‘onganiga ishonaman: “Nega bundan oldinroq tadbirkor bo‘lmagan ekanmiz?”. Chunki bugun mamlakatimizda biznes boshlash, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va kengaytirish uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni ko‘rib, yurtimizda xususiy sektorga qanchalik katta e’tibor qaratilayotganini yana bir bor his qildik.**



Bunday muloqotlarning eng muhim jihati — ochiqlik va samimiylik. Uchrashuvda ikki tomon ham o‘z fikrini erkin bildiryapti. Davlatimiz rahbari sohadagi masalalar, kelgusidagi vazifalar va yangi imkoniyatlar haqida qarashlarini bayon qilmoqda. Ishbilarmonlar esa o‘z tajribasi, taklif va mulohazalarini o‘rtaga tashlamoqda. Menimcha, bunday to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotning o‘ziyoq katta ahamiyatga ega.

Uchrashuvni qancha ta’riflasak ham arziydi. Chunki bu yerda gap faqat imtiyozlar yoki alohida yengilliklar haqida borayotgani yo‘q. Masala mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, ishlab chiqarishni ko‘paytirish, yangi ish o‘rinlari ochish va har bir tashabbuskor insonga o‘z salohiyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratish haqida ketyapti.


Tadbirkor tabiatan natijani o‘ylaydi. Chunki foyda bo‘lmasa, korxonani rivojlantirish, yangi uskunalar olish, ish o‘rinlarini ko‘paytirishning imkoni yo‘q. Korxona daromadli ishlasa, quvvati ortadi, yangi loyihalarga qadam qo‘yiladi. Eng muhimi, bu jarayondan nafaqat korxona egasi, balki unda mehnat qilayotgan odamlar, ularning oilasi va umuman, jamiyat manfaat ko‘radi.

Shu bois, uchrashuvda bildirilgan takliflarni juda ijobiy qabul qildik. Davlatimiz rahbarining har bir tashabbusida ishlash, o‘sish, yangi loyiha boshlash va imkoniyatlarni kengaytirish uchun yangi sharoitlar yaratish maqsadi ko‘rinib turibdi.

Albatta, imkoniyatning o‘zi hali natija degani emas. Uni to‘g‘ri anglash, unumli foydalanish va amalda natija ko‘rsatish kerak. Menimcha, bugungi ishbilarmonning eng katta vazifasi ham shu — yaratilgan sharoitni real iqtisodiy natijaga aylantirish.

Bugun berilgan imkoniyatdan to‘g‘ri foydalangan korxona ertaga o‘z ishlab chiqarishini kengaytiradi, yangi bozorlarga chiqadi, ko‘proq mahsulot ishlab chiqaradi, ish o‘rinlari ochadi. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiy qudrati va xalqimiz farovonligiga xizmat qiladi.

**Rejep AVEZOV,**
**tadbirkor**




Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlar.







O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligiga

# QASHQADARYO: XOMASHYO HUDUDIDAN BILIM VA YUQORI TEXNOLOGIYALARGA TAYANGAN IQTISODIYOT SARI

## Qashqadaryo viloyati hokimi Murotjon AZIMOV bilan “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari bosh muharriri Salim DONIYOROV suhbati

Boshlanishi 1-betda

Yana bir yirik tashabbus — Muborak tumani Konchilar mahallasida 200 gektar maydonda innovatsion sanoat zonasini tashkil etish. Unda 5 ta asosiy va 30 ta qo‘shimcha loyihani joylashtirish, muhandislik tarmoqlarini oldindan yetkazish va investorlarga tayyor ishlab chiqarish maydoni taklif etish ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari, Tallimarjon issiqlik elektr stansiyasi atrofida ham sanoat zonalarini tashkil qilish bo‘yicha ishlayapmiz.

Sanoatni faqat yirik shaharlar yoki sanoat markazlariga to‘plab qo‘ymasdan, chekka tumanlarda ham bir maromda rivojlantirish asosiy maqsad qilib olingan. Buning uchun yangidan tashkil etilayotgan har bir korxona oldiga aniq va qat’iy talablar qo‘yilmoqda. Xususan, yangi korxonaning mahalliylashtirish darajasi, energiya samaradorligi, eksport imkoniyati va yaratilgan barqaror ish o‘rni va hokazo. Shu yo‘l bilan hududlarning iqtisodiy salohiyati tenglashtiriladi, tumanlarda yangi sanoat nuqtalari paydo bo‘ladi va aholining turmush darajasi oshiriladi.

**— Suv tanqisligi Qashqadaryo uchun ham dolzarb masalalardan biri. Suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, kanallarni rekonstruksiya qilish va agrar sohada samaradorlikni oshirish bo‘yicha qanday aniq natijalar kutilyapti?**

— Xabaringiz bor, mamlakatimizda eng qimmat suv Qashqadaryoda. Amudaryodan 7 ta nasos stansiyasi orqali Qarshi magistral kanalida viloyatimizning paxta va g‘alla eng ko‘p yetishtiriladigan bir qator hududlariga suv yetkaziladi. Shu bois, Qashqadaryoda suvdan tejamkor foydalanish qishloq xo‘jaligining barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq aholisi daromadi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Hozir 260,7 ming gektar, ya’ni sug‘oriladigan maydonlarning 51 foizi suv tejovchi texnologiyalar bilan qamrab olingan. Yil yakuniga qadar ushbu ko‘rsatkichni 58 foizga yetkazish, jumladan, 70,6 ming gektarda tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish hamda 27,4 ming gektar maydonni lazerli tekislash belgilangan. Suv yetkazib berish tizimida 320 kilometr magistral va 3,3 ming kilometr ichki kanalni betonlash, 16 ta nasos stansiyasini modernizatsiya qilish rejalashtirilgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, bu choralar yiliga 800 million kub metrgacha suvni iqtisod qilish imkonini beradi.

Bugunga qadar 66 kilometr kanal qurildi va rekonstruksiya qilindi, 687 kilometr sug‘orish hamda kollektor-drenaj tarmog‘ida ta’mirlash ishlari bajarildi. Natijada 11,8 million kub metr suv yo‘qotilishining oldi olinib, 18,5 ming gektar yerning suv ta’minoti hamda 7,2 ming gektar maydonning meliorativ holati yaxshilandi. Suv tejamkorligi agrotexnologiya bilan birga qo‘llanadi. Buning uchun sifatli urug‘, zamonaviy texnika, tuproq tahlili va oziqlantirish me’yorlari suv bilan yagona texnologik jarayonda boshqariladi.

Kelgusi bosqichda suv hisobi raqamlashtirilib, asosiy kanal va nasos stansiyalarida “aqlli” o‘lchash vositalari o‘rnatiladi. Natija bajarilgan qurilish hajmi bilan emas, dalaning oxirigacha yetib borgan suv, tejalgan elektr energiyasi va gektardan olingan qo‘shimcha daromad bilan baholanadi. Yetakchi oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, vohamizdagi Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda suvsizlikka chidamli ekinlarini ekish bo‘yicha tadqiqotlar ko‘lami kengaymoqda.

**— Prezidentimiz tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, bozorlarda go‘sht, meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining barqarorligini ta’minlash va zaxirasini yaratish bo‘yicha alohida ko‘rsatmalar berildi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar xususida ham to‘xtalsangiz.**

— Bu yo‘nalishda Qashqadaryoda imkoniyatlar juda katta. Ayniqsa, chorva bo‘yicha. Shuni hisobga olgan holda, viloyat hokimligi tomonidan chorvachilik sohasidagi loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga doir ma’lumotlar to‘plami ishlab chiqilib, fermerlar va dehqon xo‘jaliklari rahbarlariga yetkazilmoqda. Bu to‘plamda qoramolchilik, qo‘ychilik, echkichilik, yilqichilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik sohalari qamrab olingan.

Shu bilan birga, Prezidentimiz qaroriga asosan, paxta va g‘allaga ixtisoslashgan har bir fermer xo‘jaligiga chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish uchun 20 sotixdan yer maydoni berilmoqda. Hozirgi kunda 384 ta fermer xo‘jaligimiz bu yo‘nalishdagi ishlarni boshladi.

Qashqadaryoda qorako‘lchilik xo‘jaliklari ham bor. Yaqinda ularning rahbarlarini yig‘ib, muammolarini eshitdik, banklar bilan bog‘ladik. 1-avgustdan boshlab ularga imtiyozli kreditlar ajratilyapti. Xorijdan naslli mollar olib kelganlar qo‘shimcha qiymat solig‘idan ozod etilmoqda. Bu ham chorvadorlarimizga yaratilayotgan imkoniyatning bir ko‘rinishi. Shu bilan birga, xorijdan go‘sht olib kelish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilyapti. Vohada 3 ta yirik kompaniya mazkur faoliyat bilan shug‘ullanmoqda. Ayni paytda omborlarimizda 200 tonnadan ortiq go‘sht zaxirasi yaratilgan. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash borasida narxlarning kunlik monitoringini amalga oshiryapmiz, aniq strategiyalarni belgilayapmiz.

Yana bir masala. Mahallalarda aholi bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlikka jalb etishni qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Qashqadaryo misolida lokomotiv tizimni joriy qilyapmiz. Bu yerda davlat qo‘llab-quvvatlashi bor, imtiyozlar va preferensiyalar berilgan, moliyaviy yoki infratuzilmaviy yordamlar ko‘rsatilyapti. Ekspertlar, innovatsiyalar jalb qilinyapti. Qonunchilikda qancha qo‘llab-quvvatlashlar bo‘lyapti. Imtiyozlarni hamma ham bilavermaydi. Har bir mahallaga biriktirilgan rahbarlar bularni odamlarga yetkazyapti.

Mahalla tadbirkorligini rivojlantirish uchun ilmli, malakali mutaxassislar jalb qilinyapti. Subsidiyalar, foizsiz kreditlardan lokomotiv korxonalar orqali maqsadli foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda. Kredit va subsidiyalar tarqoq loyihalarga emas, har bir mahallaning asosiy iqtisodiy yo‘nalishiga xizmat qiladigan ishlab chiqarish zanjiriga beriladi. Kelgusida lokomotiv korxonalarga maqom berish, uning aniq huquq va majburiyatlarini belgilab borish taklif qilinmoqda.

Mahallada bankirlar odamlar bilan ishlayapti, kredit olib beryapti, yangi mikroloyihalarni amalga oshiryapti. Kattaroq loyihalar qilish uchun viloyatdagi tijorat banklarida joylashgan loyiha ofislariga murojaat qilib, aholiga istiqbolli, tayyor loyihalarni taqdim etyapti. Mahallada dehqon xo‘jaliklari bilan ham alohida ishlayapmiz. Lokomotiv korxonaga urug‘chilik seleksiyasini yaxshilash uchun urug‘chilik institutlari biriktirilmoqda. Har kim o‘zi bilganicha ekin ekmay, bozorbop, eksportbop mahsulotlar yetishtirish chorasini ko‘rishi kerak.






Lokomotiv korxonalarga lizing asosida yangi texnikalar ham berilmoqda. Shuningdek, ular agrokimyoviy mahsulotlar, o‘g‘itlar ta’minoti, agronomlarni yollash, mahsulotini sotib olib, eksportga yo‘naltirish masalalarida dehqon xo‘jaliklariga ko‘maklashadi. Shu singari bir qator tadbirlar orqali bugungi kunda Qashqadaryoda oziq-ovqat xavfsizligi yo‘nalishida narxlar barqaror saqlanishiga erishilmoqda.

**— Prezidentimiz viloyatda ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirishni eng muhim vazifalardan biri sifatida belgiladi. Sizningcha, aholi daromadini barqaror oshirishda qaysi mexanizm eng samarali natija bermoqda?**

— Eng samarali mexanizm — mahallaning ixtisoslashuvi, oilaning imkoniyati va tayyor bozorni bitta iqtisodiy zanjirga birlashtirishdir. Faqat kredit ajratish bilan cheklanmasdan, tayyor biznes loyiha, kasbga o‘qitish, infratuzilma, mahsulotni qabul qiluvchi “lokomotiv” korxona va sotuv kanalini bir vaqtda ta’minlash zarur.

2026-yilning birinchi yarim yilligida 331 mingdan ziyod aholining bandligi ta’minlandi. Shundan 45 mingdan ziyodi doimiy ish o‘rniga joylashtirildi, qariyb 51 ming fuqaroning mehnat faoliyati rasmiylashtirildi va 235,4 ming aholiga daromad manbai yaratildi. Ishsizlik darajasi 4,6 foizga tushdi. Yil yakuniga qadar uni 3,2 foizga, kambag‘allik darajasini esa 3 foizgacha qisqartirish vazifasi belgilangan.

Bu yondashuvning amaliy misoli Ko‘kdala tumanidagi polizchilik zanjirida ko‘rinadi. Joriy yilda 20 ming gektar maydonda tarvuz yetishtirilib, 105 ming tonna hosil olindi va 10 ta davlatga 35 million dollarlik mahsulot eksport qilindi. Har bir gektardan o‘rtacha 60 million so‘m sof daromad olingani xonadon, dehqon va fermer xo‘jaliklarini yagona sotuv tizimiga birlashtirish samarasini ko‘rsatdi.

Viloyatda chuqur ixtisoslashgan mahallalar soni 209 tani, o‘rta ixtisoslashgan mahallalar 492 tani, past ixtisoslashgan mahallalar 74 tani tashkil etadi. Joriy yilda 106 ta mahallada ixtisoslashtirish darajasini 50 foizdan oshirishni maqsad qilganmiz. Qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan mahallalarda urug‘ va ko‘chat yetkazib berish, agrotexnik xizmat ko‘rsatish, yetishtirish, yig‘ib olish, saralash, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonlari yagona kooperatsiya zanjiriga birlashtirildi.

Hurmatli Prezidentimiz har doim bizga ilmga asoslangan holda yondashib, qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish vazifasini belgilab beradi.

G‘uzor tumanidagi Dashtobod mahallasi tajribasi mahalla ixtisoslashuvi, “bir kontur — bir mahsulot” tamoyili va qo‘shilgan qiymat yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy natijasidir. Dashtobod mahallasi pomidorchilikka ixtisoslashgan. Pomidor yetishtirish maydoni 800 gektarga, yillik hosil hajmi 60 ming tonnaga yetkazildi. Yetishtirilgan mahsulot respublikaning 5 ta viloyati bozorlariga yetkazilmoqda.

Mahsulotni saralash, qadoqlash, quritish, qayta ishlash va eksportga tayyor mahsulot sifatida sotish orqali “daladan — tashqi bozorgacha” qo‘shilgan qiymat zanjirini to‘liq shakllantirish ishlari amalga oshirilmoqda. Dashtobod mahallasi aholisining turmush sharoiti va farovonlik darajasidagi o‘zgarishlarni quyidagi 5 ta ko‘rsatkich orqali ifodalamoqchiman:

— 2020-yilda mahallada 42 ta yengil avtomashina bo‘lgan bo‘lsa, hozirda ularning soni 936 taga yetdi yoki 22 barobarga oshdi;

— tadbirkorlik subyektlari soni 23 barobarga *(3 tadan 70 taga)*, rasmiy band aholi soni 40 barobarga ko‘paydi;

— oliy ta’limga qamrov darajasi 5 barobarga oshdi;

— ilgari ishsizlik yuqori bo‘lgan ushbu hududga hozir boshqa hududlardan 1000 nafarga yaqin ishchi kuchi jalb qilinmoqda;

— mahalla jinoyatchilik, ishsizlik, kambag‘allik, oilaviy ajrimlar va notinch oilalardan xoli hududga aylandi.

Yoki Koson tumani Esaboy mahallasi o‘zining sabzichilik maktabi bilan yurtimizda tanilgan. Jami 2700 gektar maydonda sabzi ekilib, har gektardan o‘rtacha 40-45 tonna, jumladan, 2025-yilda 110 ming tonna sabzi yetishtirildi hamda aholi va tadbirkorlar tomonidan 220 milliard so‘m daromad olindi. Mahallada sabzi yetishtirish asosida qo‘shilgan qiymatning bir nechta zanjiri shakllantirilib, aholining daromadi bir necha barobarga oshdi. Jumladan, 14 yetakchi tadbirkor sabzini yuvish, saralash va qadoqlash sexlarini ishga tushirgan. Ushbu sexlarda bir kunda o‘rtacha 150 tonna mahsulot tayyor holatga keltirilib, respublikamiz bozorlariga, shuningdek, Qozog‘iston va Qirg‘izistonga eksport qilish yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur sexlarda 140 fuqaro doimiy va 300 dan ortiq aholi mavsumiy ish bilan ta’minlangan. Bundan tashqari, sutkalik quvvati 15 ming dona polipropilen qop ishlab chiqarish korxonasi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. 24 ta xonadonda umumiy sig‘imi 5300 tonna bo‘lgan sovitkich hamda muzlatkichlar tashkil etildi. Mahsulotni yuvish, qadoqlash, saqlash va sotish natijasida uning qiymati bir necha barobarga oshmoqda.

Qashqadaryo erkin iqtisodiy zonasida mustaqillik bayrami arafasida meva-sabzavotlarni quritish, qadoqlash va eksport qilishga mo‘ljallangan yangi zavod ishga tushadi. Bu yerda 20 turdagi mahsulot tayyorlanib, xorijga yo‘naltiriladi. Bu yangi ish o‘rinlari degani. Ammo bizning bosh maqsadimiz bandlik raqamlarini ko‘paytirish emas. Asosiysi, bu kabi loyihalar orqali oilalar yillar davomida barqaror va kafolatlangan daromad manbaiga ega bo‘lsin.

**— Qashqadaryoning Shahrisabz, Kitob, Miraki kabi hududlari katta turizm salohiyatiga ega. Viloyatni xalqaro turizm markazlaridan biriga aylantirish uchun qanday yangi loyihalar amalga oshirilmoqda?**

— Qashqadaryoni haligacha cho‘l hududi deb o‘ylaydiganlar yo‘q emas. Viloyatimizda bir vaqtning o‘zida to‘rtta faslni kuzatish mumkin. Bu yerda turizmni rivojlantirishdan asosiy maqsad sayyohni bir obyektga olib kelish emas, uning viloyatda qolish muddatini uzaytiradigan va mahalliy aholi daromadini oshiradigan to‘liq xizmatlar zanjirini yaratishdir. Yiliga qariyb 1 million sayyohni jalb qilayotgan Miraki tajribasi tog‘, ziyorat, gastronomik va oilaviy turizmni birlashtirish uchun asos qilib olinmoqda. Shahrisabz tumani “Miraki” MFYda 240 gektarlik “Shahrisabz” turistik markazida umumiy 1050 o‘ringa mo‘ljallangan 2 ta 3 yulduzli mehmonxona, 135 ta uy-mehmonxonalari, 4 ta xostel, 3 ta sanatoriya, savdo-ko‘ngilochar markazlari hamda bir vaqtning o‘zida 130 nafar turistga xizmat ko‘rsatuvchi 2100 metrli dor yo‘li, avtoturargoh va restoran ishga tushirildi. Shuningdek, “Hisorak” suv omborida tyubing, osma ko‘prik, qiyalikdagi arg‘imchoqlar, 2 ta umumiy uzunligi 1 kilometr bo‘lgan ziplayn va suv sathida 20 ga yaqin katerda sayohat xizmatlari tashkil qilindi. Bu model Shahrisabz, Kitob, Qamashi va Yakkabog‘ hududlariga kengaytiriladi.

Qamashi tumanida “Maydanak” baland tog‘ turizm markazini tashkil etish, Shahrisabz tumanida bir vaqtning o‘zida 13 ming sayohatchiga xizmat ko‘rsatadigan “G‘elon” xalqaro umummavsumiy kurortini barpo etish, Yakkabog‘ tumani Tatar qishlog‘ida turizm xizmatlarini rivojlantirish rejalashtirilgan.

Ekstremal va ziyorat turizmi yo‘nalishidagi sayyohlar uchun jozibador bo‘lgan Hazrati Sulton cho‘qqisi hududida xavfsiz treking yo‘nalishlari, yo‘l ko‘rsatkichlar, qutqaruv nuqtalari va chodirli oromgohlar tashkil etiladi. Shahrisabzdagi tarixiy va madaniy meros obyektlari Kitob geologiya qo‘riqxonasi, Miraki va tog‘ qishloqlari bilan yagona ko‘p kunlik marshrutga bog‘lanadi.

Joriy yilda 45 ta mehmonxona va oilaviy mehmon uyi tashkil etib, qo‘shimcha 1130 ta o‘rin yaratish belgilangan. Birinchi yarim yillikda 3 ta mehmonxonada 180 ta o‘rin, 28 ta oilaviy mehmon uyi va 5 ta boshqa turizm obyekti ishga tushirildi. Transport qulayligini oshirish maqsadida 38 ta avtobus olib kelinib, 6 ta yangi yo‘nalish ochildi. Keyingi bosqichda aviaqatnov, temir yo‘l, avtobus va ichki turistik marshrutlar jadvali o‘zaro muvofiqlashtiriladi.

**— Bugungi rahbardan nafaqat iqtisodiy natija, balki ochiq muloqot ham talab etilmoqda. Hokim sifatida aholi murojaatlari va tanqidlaridan qanday xulosa chiqarasiz? Qaror qabul qilishda qaysi tamoyil siz uchun eng muhim?**

— Xalqimiz murojaatini tinglash — asosiy vazifamiz. Viloyat hokimi Xalq qabulxonasi mudiri hisoblanadi. Xalq ichiga kirmasak, muloqot qilmasak, oyog‘imiz yerdan uzilib qolishi mumkin. Bugun viloyat hokimining qo‘lida hamma imkoniyat bor, mablag‘ bor. Prezidentimiz hamma imkoniyatni yaratib beryapti. Videoselektor yig‘ilishlarida viloyatda hal etish imkoni bo‘lmagan masalalarni qo‘ysak, zudlik bilan chorasi topilyapti.

Birgina misol, Qashqadaryoda 2017-yilda ichimlik suv bilan ta’minlash darajasi amalda atigi 11 foiz bo‘lgan. Oxirgi yillarda bu yo‘nalishda 2 trillion 750 milliard so‘m mablag‘ ajratib berildi. Shuning evaziga ta’minlanganlik darajasi 61,5 foizga yetdi. Qarshi shahrida 200 milliard so‘mlik mablag‘ evaziga kanalizatsiya va oqova suv tarmoqlari ta’mirlandi. Bu ishlar oldindan hisobga olinmaganida, ayniqsa, anomal issiq sharoitida qancha-qancha odamlarning noroziligiga sabab bo‘lishi mumkin edi.

Prezidentimizning o‘tgan yilning iyun oyida viloyatimizga tashrifi chog‘ida bergan topshiriqlari asosida “Hisorak suv ombori suvidan foydalanish hisobidan Qashqadaryo viloyati aholisining ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash” bo‘yicha yirik loyiha ijrosi tobora jadallashib bormoqda. Mazkur loyihaning ishga tushirilishi natijasida Qamashi, G‘uzor, Qarshi tumanlari va Qarshi shahridagi 1,1 million nafar aholining ichimlik suv ta’minoti tubdan yaxshilanadi.

Aholi bilan qanchalik ko‘p uchrashsak, mahallalarga, maktablarga, shifoxonalarga kiradigan bo‘lsak, avvalo, o‘zimizga foyda bo‘ladi. Hokim sifatida tanqidni to‘g‘ri qabul qilib, tezkor xolis munosabat bildirish, chora-tadbir belgilanishini ta’minlashga harakat qilaman.

**— Qashqadaryo yoshlari ilm-fan, tadbirkorlik va zamonaviy kasblarga qiziqishi uchun qanday yangi imkoniyatlar yaratilyapti? Sizningcha, viloyat taraqqiyotida yoshlar qaysi sohada asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin?**

— Yoshlar uchun imkoniyatlarni uch yo‘nalishda kengaytiryapmiz: raqamli kasblar, texnologik tadbirkorlik va sanoat bilan bog‘langan amaliy ta’lim.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ikkita bank yoshlarimizga biriktirildi. Milliy bank oliy ta’lim bitiruvchilari bilan, “Aloqabank” yoshlarimiz tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlayapti.

Viloyatda 67 ta AT park rezident korxonasi faoliyat yuritib, ularda 700 nafarga yaqin yosh daromad topmoqda. Joriy yilda AT xizmatlari eksportini 10 million dollarga yetkazish va Qarshi shahrida yangi zamonaviy AT park binosini tashkil etish rejalashtirilgan. Qarshi va Yakkabog‘ tumanlarida yangi formatdagi Yoshlar markazlari, Qarshi shahrida Media markaz barpo etilmoqda. Ularda dasturlash, sun’iy intellekt, grafik dizayn, robototexnika, xorijiy tillar, kontent yaratish va elektron tijorat bo‘yicha amaliy kurslar tashkil etiladi.

Bugun viloyatimizdagi 9 ta oliy ta’lim muassasasida 102 ming talaba o‘qimoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta’limga qamrash darajasi 9 yil oldin 9 foiz edi, ayni paytda 50,4 foizga yetdi. Xalqaro mehnat bozori uchun kasbiy tayyorgarlikda Germaniya bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda. 2026-yilda 3 ming, 2027-yilda 5 ming nafar yoshni talab yuqori kasblarga o‘qitib, tartibli mehnat migratsiyasi asosida ishga yo‘naltirish rejalashtirilgan. Buning uchun Qarshi shahrida Ta’lim va texnologiyalar markazi ochildi.

Qashqadaryoda yoshlar, eng avvalo, AT va sun’iy intellekt, agrotexnologiya, sanoat muhandisligi, logistika va zamonaviy turizmda asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin. Chunki viloyatda resurs va ishlab chiqarish bazasi bor, uning samaradorligini oshiradigan asosiy omil esa yangi bilim va texnologiyadir.

**— Agar besh yildan keyin Qashqadaryo viloyati haqida bitta asosiy natija bilan faxrlanish imkoniyati bo‘lsa, bu qaysi sohadagi o‘zgarish bo‘lishini istar edingiz?**

— Albatta, respublikamizda, xususan, viloyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, erishilayotgan natijalarning boshida muhtaram Prezidentimiz turibdi. Ichimlik suv yetkazib berish, yo‘llarni asfaltlashtirish, yangi qurilayotgan binolar, maktablar, bog‘chalar, sanoat korxonalari, kiritilayotgan investitsiyalar — hamma-hammasi davlatimiz rahbarining tashabbusi va yaratib bergan sharoiti samarasidir. Viloyat hokimi sifatida, avvalo, Prezidentimiz jamoasida ishlayotganimdan, xalqimizga xizmat qilayotganimdan faxrlanaman.

Islohotlar natijasida odamlar ko‘zlarida chaqnayotgan quvonch va g‘ururni ko‘rib, o‘zimiz ham xursand bo‘lib ketamiz. Odamlarimiz yanada yuqori daromadli bo‘lishga intilyapti. Bolalariga sifatli ta’lim berishga, zamonaviy tibbiyot yutuqlaridan foydalanishga, sport bilan shug‘ullanishga investitsiya kirityapti. Bu ham xalqimizning turmush farovonligi oshganligidan, shunga mos tarzda dunyoqarashi o‘zgarayotganidan dalolat. Tushungan odam bugun o‘zini ortiqcha xarajat, dabdababozliklardan cheklayapti. Uning o‘rniga farzandining ta’limiga, sog‘lig‘iga, kelajagiga e’tibor qaratyapti. Tadbirkorlarimiz ham o‘zini xalqimiz xizmatiga ko‘proq safarbar qilyapti. Yaratib berilgan imkoniyatlardan foydalangan holda ular ham o‘zida Vatan taraqqiyoti uchun daxldorlik va mas’uliyat hissini sezmoqda. Mana shunday o‘zgarishlar bardavom bo‘lishini istar edim.

Besh yildan keyin faxrlanishni istaydigan asosiy natijam — Qashqadaryoning tabiiy resurs sotadigan hududdan bilim, texnologiya va chuqur qayta ishlashga asoslangan zamonaviy iqtisodiyotga aylanganidir. Vohadoshlarimiz “Qashqadaryoda ishlash, yashash va farzand tarbiyalash uchun sharoit tubdan yaxshilandi”, deb baholasa, bu eng katta faxrimiz bo‘ladi.

**— Murotjon Berdialiyevich, mazmunli suhbatingiz uchun sizga ko‘pdan-ko‘p rahmat!**

“Asakabank” tomonidan 2 ta lot uchun 4,6 gektar yer maydoni auksion orqali xarid qilingan va mazkur bankning jami 321 milliard so‘m mablag‘lari hisobidan 211 milliard so‘mlik 300 o‘rinli 4 qavatli mehmonxona hamda 110 milliard so‘mlik 5 ming kvadrat metrli 2 qavatli savdo kompleksi va restoran qurib bitkazildi.

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

## Islohot odimlari



# SANOAT QUVVATIDAN RIVOJLANAYOTGAN VOHA

**Sanoat har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlovchi muhim sektor. Shu bois, mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish hamda yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.**

Ayniqsa, hududlar bo‘yicha sanoat imkoniyatini oshirish, xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash hamda mahalliy ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari samara bermoqda. Bu borada Qashqadaryo viloyatining ham mamlakatimiz sanoat xaritasidagi mavqei muttasil oshib boryapti.

Hudud iqtisodiyoti an’anaviy ravishda tabiiy resurslar, xususan, neft-gaz, paxta va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga tayanadi. Sanoat sohasida esa gazni qayta ishlash, kimyo ishlab chiqarish, to‘qimachilik, oziq-ovqat va qurilish materiallari tarmoqlari asosiy o‘rin egallaydi. Viloyatning sanoat sektori ancha yildan buyon ichki bozor ehtiyojini qoplash bilan birga eksport salohiyatini kengaytirish maqsadida modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda.

Investitsiya muhitining yaxshilanishi hududning makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda yangi ish o‘rinlarini ochishda hal qiluvchi omilga aylandi. Amaliy sa’y-harakatlar tufayli sanoat tarmog‘idagi ijobiy dinamika iqtisodiyotning boshqa sohalariga ham zanjirli ta’sir ko‘rsatib, infratuzilmani rivojlantirish va biznes subyektlari faoliyatini jadallashtirish imkonini berdi. Buni so‘nggi yillarda qayd etilgan qator statistik ko‘rsatkichlar yaqqol tasdiqlaydi.

**Xususan, 2026-yili viloyatda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish qiymati 47 ming 788,6 milliard so‘mga yetib, 2017-yildagiga nisbatan 36 ming 842,8 milliard so‘mga ko‘paydi. Shuningdek, aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari qiymati 12 million 992,6 ming so‘mga yetdi.**

Viloyatda xizmatlar hajmi keskin oshdi. Jumladan, 2017-yildagiga nisbatan 10 ming 698 milliard so‘mdan 54 ming 118 milliard so‘mga yetdi. Bu esa 5,1 marta o‘sish kuzatilganini anglatadi. Tadbirkorlik yo‘nalishlarida ham jadal sur’at kuzatilib, viloyatda faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 2017-yildagi 14 ming 347 tadan bu yil 32 ming 838 taga yetdi. Shuningdek, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni 200 dan oshdi. Xususan, bunday korxonalar soni 263 taga yetib, 2017-yildagiga nisbatan 4,6 baravar o‘sish kuzatildi.

Ishbilarmonlik muhiti yaxshilanishi natijasida to‘plangan ushbu resurs va tajriba endi hududiy iqtisodiyotni strategik bosqichga olib chiqish, ya’ni yuqori texnologik va tizimli loyihalarni amalga oshirish imkonini beryapti.

Joriy yil mart oyida Prezidentimiz Qashqadaryo viloyatida islohotlar natijadorligi hamda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazgan edi. Unda sanoatda 1,7 milliard dollarlik 195 ta loyihani ishga tushirish, qo‘shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda mikrosanoat markazlari tashkil etish orqali tarmoqlarda yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash zarurligi qayd etilgandi.

Shuningdek, Muborak maxsus innovatsion sanoat zonasi va Qarshi yashil texnologiyalar sanoat zonasini tashkil etib, 2026-2027-yillarda ularda 1,1 milliard dollarlikdan ziyod 36 ta loyihani amalga oshirish va 6000 ga yaqin yangi ish o‘rni ochish rejalashtirilgan.

Qashqadaryo sanoati, iqtisodiyoti bugun qazib chiqarish va xomashyo yetkazib berishga asoslangan an’anaviy modeldan chuqur qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bosqichiga transformatsiya qilinyapti. Hududda shakllantirilayotgan yangi ishlab chiqarish xablari va muqobil energiyaga tayangan quvvatlar viloyatning eksport profilini to‘liq diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Yirik majmualar atrofida kichik va o‘rta sanoat korxonalarni kooperatsiya asosida birlashtirish orqali hududda uzluksiz logistika hamda ta’minot zanjiri shakllanyapti.

Natijada viloyat nafaqat sanoat xomashyo bazasi, balki xalqaro bozorda raqobatbardosh, texnologik jihatdan mustaqil va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi yirik sanoat markaziga aylanib bormoqda.

**Akbar RAHMONOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

## Kechagi ezgu niyat – bugungi haqiqat

**Bir vaqtning o‘zida to‘rt faslni kuzatish istagida Qashqadaryoga kelayotgan sayyohlar oqimi yil sayin ko‘paymoqda. Mubolag‘a emas, ma’lum bir vaqtda qaysidir hududda qish, yana birida bahor, birida yoz, bir tomonida kuz faslini guvohi bo‘lgan kishi tabiatning mo‘jizakorligiga tasanno aytadi. Bu jarayonga guvoh bo‘lish uchun esa voha tomon yo‘lga otlanish, ona zamin siru sinoatlaridan voqif bo‘lmoq kerak.**



# BUNDA TO‘RT FASL MUJASSAM

Sir emas, viloyatda ilgari turizm sohasida muammolar bisyor, talabga javob berishi mumkin bo‘lgan sanoqligina sayyohlik manzili bor edi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ushbu yo‘nalishda bir qancha ishlar qilindi. Buni o‘tgan ikki-uch yilda viloyatga sayyoh sifatida tashrif buyuruvchilar soni ortganidan ham bilish mumkin.

Prezidentimizning 2023-yil 28-noyabrdagi “Qashqadaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi vohada turizm yo‘nalishini yangi bosqichga olib chiqdi. Xususan, mazkur qarorga ko‘ra, 240 gektarli “Shahrisabz” turistik markazi hududida turizm va yondosh yo‘nalishlardagi infratuzilma obyektlari qurish bo‘yicha master-reja ishlab chiqildi.

> **Tumandagi “Miraki”, “Amir Temur” va “Uloch” MFYlarida piyodalar va velosipedchilar uchun 10 kilometrli salomatlik yo‘lagi qurildi. Birgina shu yo‘lakning o‘zi 200 dan ortiq xizmat ko‘rsatish nuqtasi va 400 ga yaqin ish o‘rni ochilishiga asos bo‘ldi.**

Natijada umumiy 1050 o‘ringa mo‘ljallangan 2 ta 4 yulduzli mehmonxona, xostel hamda savdo-ko‘ngilochar markaz qurildi. Shuningdek, umumiy uzunligi 1800 metrli dor yo‘li, avtoturargoh va restoran barpo etildi. Madaniy hordiq chiqarish bog‘lari tashkil qilindi. Zamonaviy tipdagi xizmat turlari yo‘lga qo‘yildi.

Tumandagi “Miraki”, “Amir Temur” va “Uloch” MFYlarida piyodalar va velosipedchilar uchun 10 kilometrli salomatlik yo‘lagi qurildi. Birgina shu yo‘lakning o‘zi 200 dan ortiq xizmat ko‘rsatish nuqtasi va 400 ga yaqin ish o‘rni ochilishiga asos bo‘ldi.

Bundan tashqari, “Hisorak” suv ombori hududida 2 ta 20 o‘rinli katerda sayohat xizmati tashkil etilib, yangi turizm marshruti ochildi. Bunda viloyatning boshqa hududida takrorlanmaydigan suv ustida sayohat qilish sharoiti mavjud. Loyihaning keyingi bandiga ko‘ra, gidrotsikllarda sayohat qilish va rafting sport turi bilan shug‘ullanish imkoniyatini ham yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilgan.

O‘tgan yilning 4-6-oktabr kunlari Rossiyaning Qozon shahrida o‘tkazilgan “Kazan EKSPO” tadbiri doirasida viloyat hokimi boshchiligidagi delegatsiya Shahrisabz tumanida umummavsumiy dam olish maskanini tashkil etish loyihasi bo‘yicha muhim kelishuvlarga erishdi. Natijada xorijiy hamkorlar bilan birga hududning master-rejasi ishlab chiqildi. Bu jarayonda Avstriyaning “Dopel Mayer” kompaniyasi hamda Ispaniya, Polsha, Slovakiya va rossiyalik mutaxassislar bir necha marotaba joyiga chiqqan holda hududning imkoniyatlarini o‘rgandi. Tabiati, iqlim sharoiti, qulayliklari haqida ma’lumotlar olindi. Master-rejaga ko‘ra, umumiy 2,9 ming gektar tog‘li hududda 200 kilometrli tog‘ chang‘i trassalari, 13,9 kilometrli har xil turdagi dor yo‘llari, 160 ming 400 kvadrat metr maydonda bino-inshootlar qurish orqali bir vaqtning o‘zida 13 ming 884 kishini sig‘dira oladigan yotoq joylar yaratiladi. Shu majmuaning o‘zi bir yilda 1 million sayyohni qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bu joyda kattagina ish o‘rni ham yaratiladi.

Davlatimiz rahbarining “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori esa turizm yo‘nalishida mehnat qilayotgan tadbirkorlar uchun yanada keng yo‘l ochdi. Unga ko‘ra, hududlarni iqtisodiy rivojlantirish va urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, jumladan, tumanlar va shaharlarning drayver yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun master-rejalarni ishlab chiqish, bo‘sh yer uchastkalarida yuqori daromad keltiradigan faoliyat turlarini tashkil etish, infratuzilma loyihalarining master-rejalariga muvofiq bajarish maqsad qilingan. Shuningdek, turizm sohasi imkoniyatlarini kengaytirish yuzasidan ham vazifalar belgilab berildi.



**Sarvar QAYUMOV,**
**Qashqadaryo viloyati hokimligi huzuridagi turizm infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish departamenti davlat muassasasi direktori**

Mazkur hujjatga asosan, tijorat banklari ko‘magida ishlab chiqilgan master-rejaga ko‘ra Qamashi tumanida turizm obyektlariga ixtisoslashgan 41 gektar yer-uchastka auksion savdolarga chiqarildi. Muhimi, qarorda viloyat turizm salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladigan qo‘shimcha imtiyozlar kiritilgan. Mazkur qarorning 14-bandida Prezidentimizning 2023-yil 28-noyabrdagi qarorining 6-bandi to‘ldirilishi belgilandi.

Unga ko‘ra, 2024-yil 1-yanvardan 2025-yil 31-dekabrga qadar elektron auksion savdolarda realizatsiya qilingan yer uchastkalari bo‘yicha dastlabki to‘lov summasi 15 foizdan ko‘p bo‘lgan hollarda qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi bo‘yicha foizlar hisoblash tartibi amal qilmasligi belgilandi. Shuningdek, auksion g‘olibi tomonidan dastlabki to‘lov summasining kamida 15 foizi to‘langanda, unga yer uchastkasiga bo‘lgan ijara va mulk huquqini kredit ta’minoti sifatida garovga qo‘yish huquqi berildi. Bu yangilik bugun vohamizda shu tizimda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar quvonchiga sabab bo‘ldi.

Xususan, “O‘zsanoatqurilishbank” tomonidan “Shahrisabz” turistik markazi hududidan 2 ta lot uchun 5,05 gektar yer maydoni auksion orqali xarid qilingan hamda mazkur bankning kredit mablag‘lari hisobidan 212 milliard so‘mlik 300 o‘rinli 4 qavatli mehmonxona hamda 72 milliard so‘mlik 300 o‘rinli xostel, restoran, sport zali, bolalar maydonchasi kabi jami 284 milliard so‘mlik loyihalar ishga tushirildi hamda bugungi kunda faoliyat yuritmoqda.

“Asakabank” tomonidan 2 ta lot uchun 4,6 gektar yer maydoni auksion orqali xarid qilingan va mazkur bankning jami 321 milliard so‘m mablag‘lari hisobidan 211 milliard so‘mlik 300 o‘rinli 4 qavatli mehmonxona hamda 110 milliard so‘mlik 5 ming kvadrat metrli 2 qavatli savdo kompleksi va restoran qurib bitkazildi. Milliy bank tomonidan 170 milliard so‘m investitsiya hisobiga 20 ta kabinaga ega bo‘lgan 2084 metr uzunlikdagi dor yo‘li, avtoturargoh, zamonaviy ovqatlanish va xizmat ko‘rsatish majmuasi tashkil etilgan.

“Hisorakgidroqurilish” MCHJ tomonidan ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. Hududda tashkilot tomonidan 135,4 milliard so‘m mablag‘ evaziga 8 gektar yer maydonida kuniga mingta sayyohga xizmat ko‘rsatuvchi dam olish maskani hamda 3,7 gektarga ekopark qurilish ishlari davom etmoqda.

Turizm departamenti tomonidan esa 3,2 gektar yer maydonida kooperatsiya usulida yiliga 160 tonna forel balig‘i yetishtirishga ixtisoslashgan 20ta hovuz, shuningdek, sayyohlar uchun baliq ovlash xizmatini tashkil etish uchun 3 ta katta sun’iy ko‘l hamda restoran, besedkalar qurilib zamonaviy “Baliqxona” kompleksi, 38 sotix yer maydonida 500 bosh o‘rdakchilik loyihasi qurilishi amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, master-rejaga asosan 10 kilometr uzunlikda salomatlik, piyodalar va veloyo‘laklar qurilib, yo‘lak panjaralari, 300 ta tungi yoritish chiroqlari, chiqindi urnalari, o‘rindiqlar, 2 ta 20 metrli hamda 2 ta 35 metrli osma ko‘prik o‘rnatildi.

Joriy yilning o‘tgan davri davomida piyodalar yo‘lagi, daryo bo‘yida 3 ta yozgi restoran, 6 ta muzqaymoq sotish shoxobchasi, bolalar atraksion parki tashkil etildi. Shu bilan birga, piyodalar yo‘lagi, mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan bolalar maydonchasi, yoshlar xiyoboni, nuroniylar maskani hamda bir nechta sharshara va favvoralar qurib bitkazildi.

2030-yilga qadar mazkur hududga tashrif buyuruvchi mahalliy sayyohlar sonini 6 million nafarga hamda xorijiy sayyohlar sonini 200 ming nafarga yetkazish rejalashtirilgan.

Sirasini aytganda, yo‘nalishga kiritilayotgan har bir imtiyoz, qulayliklar ishbilarmon doira vakillarining tizimdagi faoliyatini yanada kengaytiradi. Turizm xizmatlari sifati yaxshilanadi. Natijada sayyohlar tashrifi ortib, ularning mehmon bo‘lishi ikki-uch kunga uzayadi. Bu esa iqtisodiy barqarorlik oshishiga olib keladi, aholi bandligini ta’minlash uchun muhim omilga aylanadi.



**O‘zbekiston – jahonda o‘z o‘rni va mavqeiga ega davlat. Yil sayin shiddat bilan rivojlanmoqda. Buni butun dunyo ko‘rib turibdi.**

# ASRGA TATIGULIK YILLAR



## Shukronalik

Men ko‘p yillar chorvachilik sohasida ishladim. O‘ttiz uch yil tumandagi yirik qorako‘lchilikka ixtisoslashgan “Pachkamar” xo‘jaligini boshqardim. Bu davrda xo‘jalik chorvadorlariga yengil bo‘lishi uchun 4 ta qishloq yo‘li asfaltlandi, 7 ta qishloqda yangi maktab, 3 ta qishloqda vrachlik punkti qurildi.

Keyingi yillarda Prezidentimiz tomonidan qilinayotgan katta-katta loyihalarni, bunyodkorlik ishlarini, o‘zgarishlarni xalqimiz ko‘rib, bilib turibdi. Masalan, birgina tadbirkorlik, tibbiyot, xalq ta’limi, qishloq xo‘jaligi, qurilish, turizm, sport sohalarini olib ko‘raylik. Bu sohalarda erishilgan ulkan yutuqlar, natijalardan dil yayraydi.

Davlatimiz rahbarining e’tibori tufayli shahar va qishloqlarimizning qiyofasi kundan-kunga o‘zgarmoqda. Bu esa fuqarolarning ko‘nglini tog‘dek ko‘taryapti.

Qoraqalpog‘istonda bo‘lgan o‘zgarishlar kishi ko‘zini quvontiradi. Mo‘ynoq juda og‘ir ahvolda edi. Hozir borib ko‘rsangiz, havasingiz keladi. Yangi-yangi uylar qurildi, mahallalar obod bo‘ldi. Parklar, bozorlar barpo etildi. Mo‘ynoq aeroporti ta’mirlanib, bu yerga keluvchi mehmonlarning safi uzilmay qoldi. Orol dengizi o‘rnidagi ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida 2,2 million tup ihota va boshqa daraxt ko‘chatlari ekildi.

Samarqand azaldan turistlar shahri bo‘lgan. Men 1969-1974-yillarda bu shaharda o‘qiganman. O‘sha davrlarda temir yo‘l vokzalidan to Registongacha bitta ko‘cha bor edi. Hozir shahar tubdan o‘zgardi. Dunyoning haqiqiy “sayqali” bo‘ldi. Bugun shaharda katta-katta yig‘inlar, sammitlar o‘tkazilmoqda, ularda dunyo mamlakatlari rahbarlari qatnashmoqda. Samarqand aeroportiga qarang. Xuddi ochilib turgan kitobga o‘xshaydi. Bu esa Samarqand qadimdan ilmu fan, madaniyat o‘chog‘i ekanini bildiradi.

Men G‘uzor farzandiman. Viloyatimiz va tumanimizda bo‘layotgan o‘zgarishlar, katta-katta ishlarni ko‘rib, ko‘nglim tog‘dek ko‘tariladi. Chunki davlatimiz rahbari sa’y-harakati asosida viloyatimiz qiyofasi tubdan o‘zgardi. Eng og‘ir pandemiya sharoitida noyob “O‘zbekiston GTL” zavodi qurib bitkazildi. Bu aytishga oson. Lekin qanchadan-qancha qiyinchiliklar bo‘lgani faqat Yaratganga ayon. Bu asr qurilishi tufayli endilikda ko‘plab odamlar ishli bo‘ldi. Eng asosiysi, zavodda mahalliy yoshlar ishlayapti. Zavod cho‘lu biyobon, odam yursa oyog‘i, qush uchsa qanoti kuyadigan joyda qad rostladi. Bu zavod turdosh korxonalar orasida dunyoda beshinchisi hisoblanadi.

Viloyatimizda Ko‘kdala tumanining tashkil etilishi bilan chiroqchiliklarning ko‘p yillik orzu-umidlari amalga oshdi. Ikki yarim yil ichida cho‘lda yangi Ko‘kdala tumani markazi barpo etildi. Mirakida daryoning ikki tomonidan qurilgan bog‘-rog‘lar, dam olish hududlari, ko‘p qavatli mehmonxonalar, mehmon uylari odamning havasini keltiradi. G‘yelon va Maydanakdagi o‘zgarishlar — bularning hammasi Prezidentimiz tashabbusi bilan xalqimizning buguni va ertasi uchun bunyod etilmoqda. Bugun viloyatimizning qaysi mahallasiga borsangiz ham odamlarning ko‘tarinki kayfiyatiga guvoh bo‘lasiz.

Biz tinch-totuv zamonda yashayapmiz. Inson uchun bundan ziyod baxt bormi?! Shukronalik oliy ne’mat. Tumanimizning Dashtobod mahallasidagi odamlarning mehnatini ko‘rib havas qilasiz. Bu qishloq aholisi o‘zining halol mehnati bilan rizq, obro‘ topib, shon-sharafga erishmoqda. 12-15 yil oldin qishloqda bor-yo‘g‘i 8-10 ta shaxsiy avtomashina bor edi. Bugun esa ularning soni 800-900 taga yetdi. Chunki qishloq aholisi shu kecha-kunduzda bir sutkada 500-550 tonna pomidor, bodring yetishtirib, tumanimiz, viloyatimiz, qolaversa, qo‘shni viloyatlar bozorlariga yetkazib beryapti.



**O‘tkir JUMAYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan chorvador**

Yaqinda G‘uzorning “Yangi O‘zbekiston” massivida 20 ta 10-15 qavatli uy qurilishi boshlandi. Davlatimiz rahbarining topshirig‘i bilan “Mustaqillik” MFY hududida qurilgan “Nuroniylar maskani” nuroniylarning haqiqiy sevimli maskaniga aylandi.

Men ana shu ulug‘ mamlakatning oddiy fuqarosiman. Bir umr chorva bilan shug‘ullanib keldim. Chorvada fayz, baraka ko‘p, u rizq-ro‘zimiz. Shuning uchun ham har doim davlatimiz rahbari bilan uchrashganimda chorvaning ahvolini so‘raydi. Men u kishining bu xislatlarini juda hurmat qilaman.

Prezidentimizning 2020-yildagi tegishli farmoni bilan 68 yoshimda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan chorvador” faxriy unvoni bilan taqdirlandim. Ushbu unvonni davlatimiz rahbarining qo‘lidan olish men uchun baxt, sharaf bo‘ldi va yelkamga mas’uliyat ham yukladi.

Mustaqilligimizning 35 yillik yubileyi ulkan tarixiy sana. Bu bayram xalqimiz uchun yanada yaxshi kunlar, tinchlik, osoyishtalik, yangi muvaffaqiyatlar, omad olib kelsin. Istiqlolimizga ko‘z tegmasin!


**Aholini ijtimoiy himoya qilish yondashuvlari tubdan o‘zgardi. Endi har bir shaxsning real ehtiyojlariga moslashgan manzilli ko‘mak berilyapti. Davlat xizmatlari raqamlashtirildi. Yurtimizda og‘ir turmush sharoitiga tushgan oilalarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligini tiklash, mustaqil oyoqqa turishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish ustuvor vazifaga aylandi.**

# “Inson” markazlari:






# XONADONLARGA QUVONCH OLIB KIRAYOTGAN MANZILLI DASTURLAR



**Jamshid RAHMONQULOV,**
**Ijtimoiy himoya milliy agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi boshlig‘i**

Ijtimoiy himoya





Keyingi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasida tashkil etish maqsadida tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari hamda har bir mahallada kompleks ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi ijtimoiy xodim faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Natijada “Inson” markazlari tomonidan 12 toifadagi shaxslarga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar soni 140 dan ortdi. Uyma-uy yurish orqali ijtimoiy xodimlar tomonidan qariyb 69,8 ming nafar himoyaga muhtoj fuqaro aniqlandi. Shuningdek, ijtimoiy xizmatlarni mahallaga yo‘naltirish orqali 300 tadan ortiq mahallalarga yangi ijtimoiy xizmatlar kirib bordi. Ehtiyojmand oilalar bilan manzilli ishlash maqsadida “Kambag‘al oilalar reyestri” joriy qilindi.

Jumladan, 2025-yilda 215,5 mingta oilada kambag‘allik so‘rovnomasi o‘tkazilib, ularning 88,2 mingtasi “kambag‘allik reyestri”ga kiritildi. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida reyestrdagi oilalarga tuzilgan individual rejalar asosida 695,9 mingta xizmatlar ko‘rsatildi.

Joriy yilning 1-fevralidan boshlab “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” va “Kambag‘al oilalar reyestri” negizida ijtimoiy reyestr joriy etildi. Reyestrga kiritilgan oilalar ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib, 3 ta toifaga, ya’ni “Davlat ta’minotidagi oila”, “Kambag‘al oila” va “Kambag‘allik chegarasidagi oila”ga ajratildi. Bunda “Ijtimoiy reyestr”dagi oilalarga 120 turdagi davlat tomonidan berilgan imtiyozlardan foydalanish va yordamlar ko‘rsatish belgilab qo‘yildi. Natijada reyestrdagi oilalarning 6,5 ming nafar farzandi maktabgacha ta’limga, 8,4 ming nafar o‘g‘il-qiz maktablardagi to‘garaklarga jalb qilindi. Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalarning o‘quv yilini “a’lo” baholarga o‘qiydigan 2977 nafar farzandi yozgi oromgohlarga yuborildi. I guruh nogironligi bo‘lgan va mehnatga layoqatli a’zosi bo‘lmagan 359 ta oila xonadoni “energiya tejamkor” qilib moslashtirib, ta’mirlab berilmoqda.

Prezidentimizning “O‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar ko‘lami sezilarli darajada kengaytirildi. Endi fuqarolarga faqat muassasalarda emas, balki ularning yashash joyida ham ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, individual ehtiyojidan kelib chiqib yordam tashkil etish hamda davlat va nodavlat sektor hamkorligini rivojlantirish bo‘yicha yangi mexanizmlar joriy etildi. Natijada “Faol hayotga qadam” dasturi doirasida 4354 nafar o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxs ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olindi. Ularning parvarishi bilan band bo‘lgan 2236 nafar shaxsning bandligi ta’minlandi. Shu jarayonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimida muhim institutsional o‘zgarishlar amalga oshirilganini ham ta’kidlash lozim. Xususan, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash, ularni oilaga joylashtirish, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakolatlar yagona tizimga birlashtirildi hamda vasiylik va homiylik organlarining bolalar huquqlarini himoya qilishga oid funksiyalari agentlik tizimiga o‘tkazildi.

Vasiylik va homiylik tizimining soddalashtirilishi yo‘nalishida avvallari vasiylik va homiylik tayinlash jarayonida fuqarolardan ko‘plab hujjatlar talab etilardi. Hozir raqamlashtirilgan tizimlar va davlat organlari o‘rtasidagi elektron integratsiya natijasida ortiqcha hujjatlarni yig‘ish amaliyoti bartaraf etildi. Fuqaro mahalladagi ijtimoiy xodimga murojaat qilishi bilan zarur ma’lumotlar elektron bazalar orqali olinib, vasiylik yoki homiylik 1-2 soat ichida rasmiylashtirilmoqda. Natijada Qashqadaryo viloyatida 2024-yil boshida vasiylik va homiylik belgilangan bolalar soni 1800 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 6989 nafarga yetdi.

Bolani oilaviy muhitda tarbiyalash tizimiga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Natijada 15 ta Oilaviy bolalar uylarida hamda Bolalar uyida tarbiyalanayotgan 144 nafar bolaning 47 nafari oilaviy muhitga joylashtirildi. Shuningdek, bolalarni oilaviy muhitda tarbiyalash maqsadida bolalar uyida tarbiyalanayotgan 15 nafar bola yangidan tashkil etilgan Kichik hajmli bolalar uylariga joylashtirildi. Buning evaziga viloyat bolalar uyi hamda 4 ta oilaviy bolalar uyi tugatildi.

14-23 yosh oralig‘ida bo‘lgan yetim va ota-ona qarovisiz qolgan bolalarga “Individual integratsiya rejasi” asosida “Yoshlarga hamrohlik” dasturi doirasida 1407 nafar yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola bo‘yicha 1901 ta xizmat rejasi shakllantirilgan. Hozir 975 ta xizmat bilan qamrab olindi. Bundan tashqari, Yoshlarga hamrohlik dasturi doirasida “Mehr daftari” jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, vaucher tizimi asosida yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga 13 turdagi ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatish amaliyoti joriy etildi.

Yana bir gap. Ilgari nogironlikni belgilash bo‘yicha avval bemorlar faqat tuman markaziy poliklinikalarning vrachlik-maslahat komissiyalariga og‘zaki murojaat qilishi hamda barcha uchun bir xil davolanish lozim muddatlari talabi mavjud edi. Bugun bu soha ham raqamlashtirilib, shaffof tizim yaratildi. Endi nogironlikni belgilash masalasida “Inson” markazlari, ijtimoiy xodimlar, my.gov.uz portali va oilaviy shifokorlar orqali murojaat qilish imkoniyati yaratildi. Nogironlikni belgilash bo‘yicha hujjatlarni yo‘naltirish oilaviy poliklinikalarga o‘tkazildi, kasallikdan kelib chiqib individual davolanish muddatlari va minimal tibbiy tekshiruv mezonlari belgilandi. Nogironlik sirtdan belgilanishi mumkin bo‘lgan kasalliklar soni 48 tadan 60 taga oshirildi, yagona standartlar va elektron baholash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Qarshi shahridagi umumiy qiymati 30 milliard so‘mlik “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazi” uchun yangidan 96 o‘rinli kompleks bino foydalanishga topshirildi. Markaz 60 turdan ortiq 180 ta zamonaviy tibbiy uskuna bilan jihozlandi hamda zamonaviy reabilitatsiya xizmati yo‘lga qo‘yildi. Markazning 5 nafar shifokori Koreya davlatida hamda 1 nafari Yaponiyada malaka oshirib keldi. Bundan tashqari, Koreya davlatidan 2 nafar mutaxassis jalb etilib, markaz mutaxassislari, tibbiyot birlashmalari, tizim muassasalari mutaxassislari zamonaviy reabilitatsiya bo‘yicha o‘qitildi.

Bugun nogironligi bo‘lgan kishilar bandligini ta’minlash borasida ham tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, keyingi yillarda viloyatda nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta’minlash hisobiga imtiyozlardan foydalanish uchun 143 ta korxona tomonidan 777 ta bo‘sh ish o‘rni yaratilib, 4133 nafar shaxsning bandligi ta’minlandi. Bundan tashqari, nogironligi bo‘lgan shaxslarga to‘siqsiz muhit yaratish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi. Tuman (shahar) ko‘chalarida ijtimoiy ko‘chalar tashkil etilib, imkoniyati cheklangan fuqarolarga moslashtirish ishlari davom etmoqda. 40 ming kilometrdan ziyod piyodalar yo‘laklari, 10 dan ziyod chorraha, 150 dan ortiq avtobus moslashtirildi. Jamoat transportlarini sotib olishda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun moslashtirilganiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugun nogironligi bo‘lgan bolalarni ta’lim va ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olish borasida ham ijobiy natijaga erishilayotganini ta’kidlash lozim. Jumladan, hozir 61 ta davlat bog‘chasida 158 ta inklyuziv guruh tashkil etilib, 210 nafar nogironligi bo‘lgan bola qamrab olindi. Shuningdek, 467 ta maktabda 717 ta inklyuziv sinflar tashkil etilib, 842 nafar nogironligi bo‘lgan bola ta’limga jalb qilindi. Ta’lim sifatini oshirish maqsadida 336 maxsus pedagog va 9 assistent-pedagog faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, 143 ta maktabda to‘siqsiz muhit, 168 ta ta’lim muassasasida korreksion-resurs xonalari tashkil etilgan.

Bundan tashqari, davlat xususiy sherikchilik asosida 45 ta kunduzgi parvarish xizmati tashkil etilib, 738 nafar nogironligi bo‘lgan bola qamrab olindi. Natijada bolalarning parvarishi bilan band bo‘lgan 196 nafar onaning bandligi ta’minlandi. Tarbiyachi va mutaxassis shifokorlar tomonidan olib borilgan “tibbiy-korreksion” ishlar natijasida 91 nafar bola sog‘lomlashtirildi va davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga chiqarildi. Natijada nogironligi bo‘lgan bolalarni ta’lim va ijtimoiy xizmatlar bilan qamrov darajasi 77 foizdan 90 foizga yetdi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan tizimli o‘zgarishlar shunchaki muayyan sohadagi yangilanish bo‘lib qolmay, davlatning fuqaro oldidagi mas’uliyati va ijtimoiy siyosat mazmunini to‘liq qayta belgilab berdi. Yillar davomida to‘planib qolgan byurokratik to‘siqlar va yagona muvofiqlashtirish mexanizmi yo‘qligi sabab ortga surib kelingan kompleks muammolar endi aniq, raqamlashgan va shaffof mezonlar asosida o‘z yechimini topmoqda.



Yuksalish pallasi

# YOSHLAR TAQDIRIGA DAXLDOR YONDASHUV

**Yurtimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, bandligini ta’minlash, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy kasb va xorijiy tillarni o‘rganishi uchun imkoniyat yaratish, shuningdek, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda.**



**Abror AHMEDOV,**
**Qashqadaryo viloyati yoshlar ishlari boshqarmasi boshlig‘i**

Davlatimiz rahbarining 30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan o‘tkazgan uchrashuvida ham dolzarb vazifalar belgilab olingan edi. Ular ijrosini ta’minlashda har bir yosh bilan individual ishlash, muammosini aniqlash va yechim taklif qilish asosiy mezonga aylangan.

Xususan, aholisining qariyb 1 millionini yoshlar tashkil etadigan Qashqadaryo viloyatida yigit-qizlarning ijtimoiy holati muntazam o‘rganilib, “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalar asosida manzilli ishlashga qamrab olinmoqda. Yil boshida o‘tkazilgan xatlov natijasida aniqlangan ishsiz 5242 yoshga 456 mas’ul biriktirilib, ularning bandligini ta’minlash bo‘yicha manzilli ishlar bajarildi. Muhimi, har bir yoshning xohishi, qobiliyati va imkoniyatidan kelib chiqib, ishga joylashtirish yoki kasb-hunarga yo‘naltirish choralari ko‘rildi.

Joriy yilda hududdagi ta’lim muassasalarini 93 ming 494 yigit-qiz bitirdi. Bugunga qadar 30 ming 607 nafarining bandligi ta’minlandi. Qolgan yoshlarning har biriga doir individual reja ishlab chiqilib, kelgusi faoliyati aniq yo‘nalishlarga ajratilgan.

Dehqonchilik bilan shug‘ullanish istagidagi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun joriy yilda 420 yigit-qizga 325 gektar yer ajratildi. Albatta, ularga yer berishning o‘zi bilan ish bitmaydi. Shu bois, barcha tumanda o‘quv-amaliy seminarlar tashkil etilib, yuqori daromadli ekinlarni tanlash, sifatli ko‘chat ekish, agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish va yerdan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar berilmoqda.

Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash borasida ham natijalar salmoqli. Joriy yilda 15,4 ming yoshga 607 milliard so‘mlik kredit ajratilib, 15,7 mingta yangi ish o‘rni ochildi. Xususan, “Oilaviy tadbirkorlik”, “Biznesga birinchi qadam”, “Mahalla” va “Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash” loyihalari orqali minglab yoshlar o‘z biznesini boshlash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shuningdek, “Ko‘mak” loyihasi doirasida xorijiy tillarga ixtisoslashgan o‘quv markazlari ochish istagidagi 53 yigit-qizga 6,7 milliard so‘mlik ssuda ajratildi. Yil yakuniga qadar yana 100 nafar yoshga 13 milliard so‘mlik ssuda ajratish rejalashtirilgan.

Navqiron avlod vakillari o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olishda ham manzilli yondashuv kuchaytirilyapti. Jumladan, jinoyat sodir etishga moyil 2346 yosh 341 mas’ulga biriktirildi. Bugunga qadar ularning 1619 nafari, ya’ni 69 foizi sog‘lomlashtirildi. Barcha mahallada “Qalqon guruhlari” orqali profilaktik tadbirlar, ta’lim muassasalarida tushuntirish ishlari va jinoyatchilik muhokamalari muntazam o‘tkazilayotgani samara beryapti.

Yoshlarning hayotidagi muammolarni erta aniqlash va ularni ijobiy muhitga yo‘naltirish maqsadida “Jasorat maktabi” loyihasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘tgan yili 500, joriy yilning birinchi yarmida esa 300 yigit-qiz ushbu loyihaga jalb etildi. Profilaktik ishlar natijasida shu yilning birinchi 6 oyida ular sodir etgan jinoyatlar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 17,9 foiz kamaydi.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalasi ham doimiy e’tiborda. Bugunga qadar “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida 21 ta tanlov va sport musobaqalariga 655 ming 685 kishi qamrab olindi. 30-iyun — “Yoshlar kuni” munosabati bilan viloyatda beshta yangi yoshlar obyekti foydalanishga topshirildi. Shuningdek, viloyatning eng chekka 35 ta mahallasida kutubxona va sport maydonchalari barpo etilmoqda. Bu obyektlar yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bilan birga ijodiy, intellektual va kasbiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun yangi imkoniyatlar beradi.

Bugun yoshlar bilan ishlash tizimi raqamlar, dasturlar va tadbirlar bilangina emas, aniq natija va har bir yosh taqdiriga daxldor yondashuv bilan baholanmoqda. Zero, ularga berilgan imkoniyat ertangi taraqqiyot sari mustahkam poydevordir. Asosiy maqsadimiz esa har bir yosh o‘z iqtidori, bilimi va mehnati bilan jamiyatda munosib o‘rin topishi uchun zarur sharoit yaratishdir.

Bir o‘lkaki...

# TA’RIFLARGA SIG‘MAS BU DIYOR



**Har bir yurtning o‘z tarovati, nafasi, o‘ziga xos qiyofasi bor. Bu bepoyon dalalar-u baland tog‘lar, qadimiy obidalar-u zamonaviy shaharlar ham bo‘lishi mumkin. Ammo bir yurt haqidagi birlamchi xulosa, avvalo, shu yerlik xalq, oddiy odamlarning fe’l-atvori, qadriyat va udumlari orqali shakllanadi. Qashqadaryo ham ana shunday o‘ziga xos o‘lka.**

Bu vohani birgina so‘z bilan ta’riflash anchayin mushkul. Uning bepoyon dalalaridagi kenglik, purviqor tog‘laridagi salobat odamlarning fe’l-xushiga ko‘chgan, qadimiy shaharlarida tarixning, o‘tmishning, zamonaviy bunyodkorliklarida esa kelajakning nafasi bor. Bu yerda kecha va bugun, tarix va taraqqiyot, an’ana va yangilanish bir-birini to‘ldirib, o‘ziga xos bir uyg‘unlik kasb etadi. Uning eng katta boyligi, xazinasi mehnatsevar, yangilikka intiladigan, yurt taqdiriga befarq bo‘lmagan insonlaridir.

Bugun ana shu insonlar yashayotgan voha katta o‘zgarishlar davriga yuz tutgan.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim tamoyillaridan biri hududlarni kompleks rivojlantirish, har bir mahallaning imkoniyatini ro‘yobga chiqarish va inson uchun munosib hayot sharoitlarini yaratish hisoblanadi. Qashqadaryoda amalga oshirilayotgan islohotlar ham ayni shu maqsadga yo‘naltirilgan. Sanoat va tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish, ta’lim va tibbiyot sifatini oshirish, turizm salohiyatidan samarali foydalanish borasidagi sa’y-harakatlar hududning bugungi qiyofasini o‘zgartirmoqda, tubdan yangilamoqda.

Vohada sanoatning yangi yo‘nalishlari shakllanyapti. Mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va investitsiyalarni jalb qilish orqali hudud iqtisodiyotining tarkibi kengayib bormoqda. Muborakdagi sanoat salohiyati, Qarshi va boshqa hududlardagi ishlab chiqarish loyihalari, tumanlarda rivojlanayotgan kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sohasi viloyatning iqtisodiy imkoniyatlari naqadar keng ekanini ko‘rsatyapti.

Qashqadaryoning tuprog‘i unumdor. Yerga mehr berib, mehnatini ayamagan inson, albatta, rohatini ham ko‘radi. Shu bois, qishloq xo‘jaligida ham yangicha yondashuvlar tobora kengayib boryapti. Suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, hosildorlikni oshirish, mahsulotni qayta ishlash va qo‘shimcha qiymat yaratishga e’tibor qaratish agrar sohaning yangi imkoniyatlarini ochmoqda. Endilikda faqat hosil yetishtirish emas, balki yetishtirilgan hosilni qayta ishlab, tayyor mahsulot sifatida ichki va tashqi bozorlarga olib chiqish dolzarb masalaga aylanib bo‘ldi.

Vohaning yana bir ulkan salohiyati — turizm. Shahrisabzning tarixiy qiyofasi, Kitob va Yakkabog‘ning betakror tabiati, tog‘li hududlar tarovatiyu qadimiy yodgorliklar va albatta boy madaniy meros Qashqadaryoni sayyohlik uchun jozibador maskanga aylantirdi.

Shu o‘rinda yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar borasida ham qisqacha to‘xtalish joiz deb o‘ylayman. Ular zamonaviy kasblarni egallashi, xorijiy tillarni o‘rganishi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanib, yangi g‘oyalarni hayotga tatbiq etishi uchun barcha sharoitlar bor. Shu ma’noda, ta’lim va ma’naviyat masalasi hududning taraqqiyot manzarasida alohida o‘rin tutadi.

Bu zamin adabiyot va san’atga mehr qo‘ygan, so‘zning mas’uliyatini anglagan ko‘plab ijodkorlarni voyaga yetkazgan. Bugun ham vohada yosh qalamkashlar, shoir va yozuvchilar, publitsistlar o‘z izlanishlarini davom ettirmoqda. Adabiy uchrashuvlar, ijodiy muloqotlar, kitobxonlik tashabbuslari yoshlarning ma’naviy olamini boyitishga xizmat qilyapti.

Jurnalistika esa bu jarayonning o‘ziga xos ko‘zgusidir. Viloyatda kechayotgan yangilanishlarni xalq bilan bog‘lash, islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish, odamlarning hayotidagi o‘zgarishlarni yoritish, muammolarni ochiq ko‘rsatish va jamiyatdagi ijobiy tashabbuslarni keng targ‘ib qilishda jurnalistlarning zimmasiga katta mas’uliyat tushmoqda. Bu esa biz kabi yosh qalamkashlarni o‘z ustimizda tinimsiz ishlab, professional ko‘nikmalarimizni doimiy ravishda rivojlantirib borishga undayapti.

Bir so‘z bilan aytganda, Qashqadaryo bugun o‘zining yangi tarixini yaratmoqda. Bu tarixda bunyodkorlik ham, mehnat ham bor. Islohot ham, inson qadri ham bor! Sanoat va zamonaviy texnologiyalar bilan bir qatorda adabiyot va ma’naviyat ham mujassam. Eng muhimi, bu tarixni xalqning o‘zi yaratmoqda.

Shu bois, hudud haqida so‘z ketganda, uni birgina jumla bilan ifodalash mumkin: boshqa joyda Qashqadaryo yo‘q!

**Rayhon OBLOQULOVA,**
**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi**




Yangi O‘zbekiston ruhi

# KO‘KDALA: JADAL TUS OLGAN TARAQQIYOTNING AMALIY IFODASI



**Azizbek YUSUPOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

**Ilgari bu yerlarni bir manzildan ikkinchisiga o‘tib ketiladigan, yantoqdan boshqa o‘simlik o‘smaydigan kenglik deb bilishardi. Biroq bugun dashtning ko‘hna bag‘rida boshqacha bir sur’at, shiddat paydo bo‘lgan. Necha yillar davomida uzog‘i yaqin bo‘lishini kutgan, o‘z taqdirini shu poyonsiz zamin bilan bog‘lagan odamlarning hayotida bugun yangi bir sahifa yozila boshlandi.**

Bu yerlardan bir zamonlar Samarqand — Balx karvon yo‘li o‘tgan. Qadimiy Monas kanali (Eski anhor) va quduqlari bu dalilning rost ekaniga isbot. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, Zarafshon daryosi suvi Qashqadaryo vohasiga asrlar davomida Monas kanali o‘zani bo‘ylab hozirgi Ko‘kdala hududi orqali oqqan. Bu suvdan keng foydalanilgan, bog‘-rog‘lar barpo etilgan.

Mo‘g‘ullar istilosi davri — XIII asrda irrigatsiya qurilmalari buzilib, yer bilan yakson etib tashlangach, bu yerlar tashlandiq holga kelib qolgan. So‘lim bog‘lar va g‘allazorlar qaqroq cho‘llarga aylangan. Bu hayhotday dalalarni xalq “Qorayantoq” deb atagan. Bu yerda daraxt ko‘karmagan, faqat ayrim joylarda yantoq o‘sgan. Baland va qalin yantoqzorlar kech kuzda qorayib, dasht shamollarida dengizday chayqalib yotgan. Yantoqzorlar gullab, shira bog‘lagach, odamlar asta-sekin yantoq shakarini yig‘ib olishni o‘rgangan va ufqqa qadar cho‘zilgan yalanglik — Qorayantoqqa tag‘in hayot qaytgan. U paytlar dasht qishloqlarida uylar bir-biridan yiroqda joylashib, ilon iziga o‘xshash egri-bugri dala yo‘llari va so‘qmoqlar bilan bog‘langan.

Yillar o‘tib, suv ta’minoti cheklangan sharoitda mahalliy aholi asta-sekin atrof-muhitning tabiiy imkoniyatlariga moslashdi. Mehnat va turmush tarzining o‘zgarishi, xususan, ichki yo‘llar orqali aloqa o‘rnatish dashtda aholi punkti va xo‘jalik faoliyatining ma’lum darajada saqlanib qolishini ta’minladi.

Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalar Ko‘kdala atrofida savdo yo‘llari bo‘lganini, Buyuk ipak yo‘lida joylashgani bois, rabotlar va karvonsaroylar faoliyat olib borganini ko‘rsatadi. Ko‘kdala dashtidan o‘tgan strategik ahamiyatga ega tranzit savdo yo‘liga Shahrisabzdan boshlangan Chiroqchi — Ko‘kdala dasht yo‘li tutashib ketgan.

Asrlar davomida shakllangan bunday turmush tarzi va tarixiy savdo chorrahasi sifatidagi mavqe XIX-XX asrlarga kelib hududiy va ma’muriy qayta tashkil etish jarayonlarini boshdan kechirdi. Yaqingacha Ko‘kdala dashti tarixan Chiroqchi hududining ajralmas qismi sifatida rivojlanib keldi. Aholi sonining muttasil ortishi, dehqonchilik va chorvachilik ko‘lami kengayishi natijasida hududda yangi aholi punktlari paydo bo‘ldi. Biroq yagona ma’muriy markazga bog‘langan, geografik jihatdan nihoyatda katta maydonni egallagan bu hududda vaqt o‘tishi bilan boshqaruv qiyinchiliklari to‘planib bordi.

Xususan, Ko‘kdala hududi aholisi uchun tuman markazi hisoblangan Chiroqchi shahriga borib-kelish katta mashaqqatga aylandi. Ayrim uzoq qishloqlardan markazgacha bo‘lgan masofa 100 kilometrdan ortib, oddiy bir ma’muriy hujjat olish yoki tibbiy xizmatdan foydalanish uchun kunlab vaqt va ortiqcha mablag‘ talab qilinardi. Maktablar va tibbiyot muassasalarining yetishmasligi, mavjudlarining esa eskiligi, elektr energiyasi, ichimlik suv va gaz ta’minotidagi surunkali uzilishlar aholining turmush darajasini keskin pasaytirdi. Hududda sanoat korxonalari va yangi ish o‘rinlarining yo‘qligi sababli ishsizlik darajasi ortib, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami kengaydi. Yagona tuman hokimligi va mutasaddi tashkilotlar esa juda katta maydon va aholiga ega hududni birdek nazorat qilish, muammolarni o‘z vaqtida hal etish va moliyaviy resurslarni teng taqsimlash imkoniyatiga ega emas edi. Bunday og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilmaviy inqiroz yillar davomida to‘planib, hududni zamon talablariga mos ravishda tubdan isloh qilishni hayotiy zaruratga aylantirdi.

2021-yil 11-oktabr kuni Prezidentimiz Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari saylovoldi uchrashuvlari davomida Qashqadaryo aholisi bilan muloqot qildi. Mamlakatimiz yetakchisi o‘z nutqida tuman aholisining markazga qatnashidagi muammolar, yo‘l va infratuzilma masalalari, ma’muriy xizmatlarning barcha qishloqlarga birdek yetkazib berilishini ta’minlash zarurligini qayd etdi. Shu munosabat bilan Chiroqchi tumanini ikkita mustaqil tumanga ajratish taklifini bildirdi. Bu taklif aholining ehtiyojlari va hududning kelgusi taraqqiyoti nuqtayi nazaridan o‘ta muhim ahamiyatga ega edi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu taklif nafaqat Chiroqchi aholisi, balki butun mamlakat ahli uchun muhim o‘zgarishlardan biri sifatida baholandi. 2022-yil 2-mart kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yalpi majlisida Ko‘kdala tumanini tashkil etish to‘g‘risidagi masala rasman muhokama qilindi. Majlisda yangi tashkil etiladigan tumanga Chiroqchi hududidan 177 ming aholi yashaydigan 171 ming gektar yer maydoni ajratilishi ta’kidlandi. Shuningdek, yangi tuman tashkil etish masalasida ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham e’tiborga olindi.

2022-yil 17-mart kuni Oliy Majlis Senati yig‘ilishida Ko‘kdala tumanini tashkil etish to‘g‘risidagi tegishli qaror qabul qilindi. Shu kundan boshlab Ko‘kdala tumani mustaqil ma’muriy birlik sifatida faoliyatini boshladi.



Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlar.






## Yashil, keng va hosildor dala

Yangi tuman nomini tanlashda hududning tarixiy va geografik xususiyatlari hisobga olindi. “Ko‘kdala” nomi o‘zbek tilida “yashil, keng va hosildor dala” ma’nosini anglatadi. Mazkur nom hududning tabiiy boyliklari, dehqonchilik va chorvachilik uchun mos sharoiti, shuningdek, bu yerda yashovchi aholining tarixiy urf-odatlariga mos keladi.

Hudud rasman tuman maqomini olguniga qadar ham mahalliy aholi orasida va ma’muriy-hududiy chegaralarda Ko‘kdala nomi bilan mashhur bo‘lgan. Chiroqchi tumani tarkibida bo‘lgan davrlardayoq bu hududdagi asosiy qishloqlar va hududiy massivlar aynan ushbu nom bilan atab kelingan. Ya’ni bu nom hudud uchun yangi emas.

— Ko‘kdala hududi bir nechta yirik yo‘l chorrahalari tutashgan, Chiroqchi tumanining boshqa olis hududlariga nisbatan infratuzilmasi va iqtisodiy faolligi yuqori bo‘lgan markaziy nuqta hisoblanadi, — deydi Ko‘kdala tumani hokimi Xurram Jo‘rayev. — Shu bois, uning ramziy nomi sifatida Ko‘kdalaning tanlanishida joylashuvning logistik qulayligi katta rol o‘ynadi. Davlatimiz rahbari 2022-yil 21-aprel kuni viloyatga tashrifi chog‘ida Ko‘kdala tumanini tashkil etish haqida gapirganda: “Ko‘kdala tumanini tashkil etishdan asosiy maqsad bu yerda yashaydigan 182 ming nafar aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish, hududni iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishdir”, degan edi. O‘sha yili mamlakatimiz yetakchisi Ko‘kdala tumanining ma’muriy markazi Yettitom shaharchasida infratuzilmani rivojlantirish loyihasi bilan tanishdi. Loyihaga ko‘ra, Yettitom shaharchasida tuman hokimligi va mahalliy idoralar uchun binolar, “Yangi O‘zbekiston” massivi, bog‘cha va maktablar, poliklinika, istirohat bog‘i, xizmat ko‘rsatish va savdo majmualari barpo etishga start berildi.

Tuman ma’muriyatining shakllanishi mustaqil va zamonaviy boshqaruv tizimini yaratish yo‘lidagi muhim qadam edi. O‘tgan to‘rt yil davomida bu gaplar o‘z isbotini topdi. Yettitom shaharchasida rejalashtirilgan barcha ma’muriy binolar foydalanishga topshirilib, yangi Yettitom shaharchasi qad rostladi.

Xususan, shaharchada 120 o‘rinli markaziy shifoxona va tibbiyot birlashmasi aholiga keng tarmoqli xizmat ko‘rsatishni boshladi. E’tiborlisi, tuman hokimligi binosi mamlakatimizda yangi tajribaning boshlanishi bo‘ldi. Bu yerda 38 ta davlat idorasi bir joyda jamlangan. Bu aholiga katta qulaylik yaratmoqda. Avvallari biror yumush yuzasidan olis masofalarni bosib, Chiroqchi tumani idoralariga qatnagan fuqarolar endi barcha xizmatlarni o‘ziga yaqin joyda olyapti. O‘tgan davr mobaynida 20 dan ortiq maktab binosi, 60 ga yaqin bog‘cha, mahalla ma’muriy binolari qurildi. Oldin butun hududda atigi uchta bog‘cha bo‘lganini hisobga olsak, bu raqamlar juda katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, tumanning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shgan, 9000 dan ortiq kitob zaxirasiga ega zamonaviy kutubxona va bir qancha markazlarni bag‘riga olgan ma’naviyat maskani binosi va sport saroyi, madaniyat saroyi hamda musiqa maktabi foydalanishga topshirildi.

* * *

Umumiy maydoni 5 072 kvadrat metr bo‘lgan uch qavatli AT park binosida “MAAB Innovation” kompaniyasi va rezidenti hisoblangan eksportchi kompaniya — “Unicall” ofisi joylashgan. Iqtisodiy salohiyatni faol oshirish va aholini ish o‘rinlari bilan ta’minlash maqsadida AT park tuman hokimiyati bilan birgalikda qulay biznes muhiti va rivojlangan infrastrukturani yaratish bo‘yicha sa’y-harakatlarni birlashtirdi.

Xususan, AT park filialida “Zero Risk” dasturiga qiziqish bildirgan kompaniyalar faoliyatini boshlash uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari, filialning har bir qavatida kovorking zona mavjud. U yerda frilanserlar o‘z loyihalari ustida qulay sharoitlarda ishlashi mumkin. Ko‘kdala tumanidagi AT park filialida maxsus ta’lim sinflari ham tashkil etilgan. Bu yerda barcha xohlovchilar sifatli AT ta’limi olishi va chet tillarini o‘rganishi, kelgusida tumanni tark etmagan holda yetakchi xorijiy kompaniyalarda ishlashi mumkin. Ushbu maqsadni amalga oshirishda “MAAB Innovation” autsorsing sohasida xalqaro bozor bilan muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan o‘zbek AT kompaniyasi yordam beradi. “MAAB” mahalliy yoshlarni talab yuqori bo‘lgan AT yo‘nalishlarida o‘qitmoqda.

Ushbu tashkilotda ta’lim kursini muvaffaqiyatli tamomlagan talabalar “MAAB Innovation” kompaniyasida kafolatlangan ish o‘rniga ega bo‘lishi va AQSHdagi yirik AT korxonalar loyihalarini amalga oshirishi mumkin. Ko‘kdala tumanida yirik AT va autsorsing kompaniyalari joylashgan, shuningdek, yangi ish o‘rinlari yaratilgan. AT park Ko‘kdala filiali hamda AT Community of Uzbekistan hamkorligida ko‘kdalalik yoshlar uchun muhim seminarlar o‘tkazib kelinmoqda.

— Ko‘kdala yoshlari respublika miqyosidagi nufuzli tanlovlarda munosib ishtirok etib, yuqori natijalarga erishdi, — deydi AT park Ko‘kdala filiali menejeri Omad Jo‘raqulov. — Xususan, Promising AT Project IdeaThon tanlovida yoshlarimiz o‘zlarining innovatsion loyihalari bilan qatnashib, faxrli 1-o‘rinni egalladi. Shuningdek, AI Hackathon tanlovida sun’iy intellektga asoslangan innovatsion yechimlari bilan ishtirok etib, faxrli 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Mazkur yutuqlar AT park Ko‘kdala filialida olib borilayotgan ta’lim sifati, amaliy loyihalar va yoshlarning salohiyati yildan-yilga ortib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

Bugungi kunda Ko‘kdala tumanida AT park tizimida 3 ta rezident korxona faoliyat yuritmoqda. Ushbu rezidentlar tomonidan axborot texnologiyalari sohasida xizmatlar ko‘rsatilib, yangi ish o‘rinlari yaratilyapti. Shuningdek, AT park ko‘magida 3 nafar yosh frilanser xalqaro onlayn platformalar orqali xorijiy buyurtmachilar bilan ishlab, eksport xizmatlarini yo‘lga qo‘ygan. Bu esa tumanda raqamli xizmatlar eksportini rivojlantirish va yoshlar bandligini ta’minlash borasidagi muhim natijalardan biri hisoblanadi.

## Xalqaro brendga aylangan tarvuz

Bugungi kunda Ko‘kdala tarvuzlari o‘zining ertapisharligi, shirin ta’mi va yuqori sifati bilan nafaqat ichki bozorlarda, balki xorijiy davlatlarda ham katta talabga ega bo‘lib bormoqda. Tumanda yetishtirilayotgan mahsulotlarning eksport hajmi yildan-yilga ortib, hudud iqtisodiy salohiyatining yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Ko‘kdala dehqonlari aprel oyining oxiri va may oyining boshlaridayoq bozorlarga yangi uzilgan tarvuzlarni olib chiqmoqda. Bu hududda yilning to‘rt faslida ham tarvuz uzilmaydi, ichki va tashqi bozorlarga mahsulot ketma-ket yetkazib beriladi. Dehqonlar mahalliy iqlim va mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib, tarvuz yetishtirish hamda saqlashning sirlarini o‘zlashtirgan. Ko‘kdala, O‘tamayli va ularga yondosh mahallalarda qo‘lbola usulda tiklangan oddiy issiqxonalarni ko‘rish mumkin. Bunday issiqxonalar juda oddiy va kamxarj bo‘lib, odatda bir mavsum uchun quriladi va keyin yig‘ishtirib olinadi. Chunki bir joyga ikkinchi yil qayta tarvuz ekish kutilgan hosilni bermaydi. Ko‘kdalada yozning issiq va quruq kelishi, quyosh nurining mo‘lligi va suv ta’minoti tarvuz yetishtirish uchun juda qulay.

— Ko‘kdalada tarvuz organik usulda, ya’ni kimyoviy vositalardan imkon qadar kam foydalanilgan holda yetishtiriladi, — deydi 16 yillik tajribaga ega mirishkor Yaxshimurod Qobilov. — Sug‘orilmaydigan lalmi yerlarning unumdorligini saqlash uchun navbatlab ekish tizimi qo‘llanadi. Bir yil g‘alla ekilgan yerga kelasi yili dam berilib, kuzda yoki erta bahorda shudgorlanadi. Lalmi tarvuzlar shirinligi va uzoq muddat saqlanishi bilan ajralib turadi. Samarqand viloyati bilan chegaradosh va adirliklar bag‘rida joylashgan Sho‘rquduq qishlog‘i aholisi lalmi tarvuz yetishtirish hamda uni tabiiy usulda uzoq saqlash bo‘yicha katta tajribaga ega. Kuzda yig‘ilgan hosil adirliklar bag‘rida, 15-30 metr pastlikda qazilgan maxsus yerto‘lalarda saqlanadi. Har bir yerto‘laning balandligi 2-2,5 metr, kengligi 3-3,5 metr, uzunligi esa 20-50 metrni tashkil etadi. Ushbu joylarda harorat yil davomida bir xil saqlangani bois, tarvuzlar o‘z tarkibi va ta’mini yo‘qotmaydi.

Ko‘kdala tarvuzlari ichki bozordan tashqari dunyoning bir qator mamlakatlariga eksport qilinadi. 2022-yilda tumanda tomchilatib sug‘orish texnologiyasi asosida 10 ming gektar maydonga tarvuz ekilgan bo‘lsa, o‘tgan yilda umumiy maydon 25 ming gektarga yetdi. Buning evaziga 19 ming nafar aholi doimiy, 21 ming nafari esa mavsumiy ish bilan ta’minlandi.

Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyatining Ko‘kdala tumanida fitosanitariya va sanitariya xizmatlarini muvofiqlashtirib turuvchi maxsus “Tarvuz eksporti shtabi” tashkil etilgan. Ushbu shtab tarvuz yetishtiruvchilar, eksportyorlarga ko‘maklashishga mo‘ljallangan. Bugungi kunda Ko‘kdala, Koson, Chiroqchi va boshqa tumanlardagi 679 nafar fermer va dehqon xo‘jaligiga qarashli 20 ming gektardan ortiq maydon raqamlashtirilib, har bir yer uchastkasining “Dala ID” ma’lumotlari shakllantirildi. Bu esa mahsulotning kelib chiqish manbai va fitosanitar holatini to‘liq kuzatib borish imkonini yaratmoqda.

Ayni paytda Qashqadaryo tarvuzlari Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Mo‘g‘uliston, Belarus, Gruziya va Latviya kabi davlatlar bozorlariga eksport qilinmoqda. Joriy mavsumda 59 ming 779 tonna tarvuz eksport qilinib, 22,45 million dollarga teng mahsulot jahon bozoriga chiqarilgan.

Hududda mahalliy tadbirkorlar tomonidan tashkil etilgan suv tejamkor uskuna ishlab chiqaruvchi sexlar ham borki, ushbu korxonalarda tarvuz maydonlarida foydalanib, keyin chiqindi sifatida tashlab yuborilgan polietilen materiallardan turli o‘lchamdagi shlang va quvurlar ishlab chiqariladi. Bunday tashabbuslar nafaqat suvni tejash va yer unumdorligini oshirish, balki atmosfera hamda zamin ifloslanishining oldini olishga ham xizmat qiladi.

Shunday zamonaviy sanoat korxonalaridan biri “S PROMAX PLAST PREMIUM” bo‘lib, u 2024-yil dekabr oyida tashkil etilgan. Ushbu korxona ishlab chiqarish jarayonlarida ekologik xavfsizlik va resurslardan oqilona foydalanishga alohida e’tibor qaratmoqda. Korxonada sanoat plastik chiqindilarini qayta ishlash tizimi joriy etilgan. Loyiha doirasida har yili 900 tonnagacha plastik sanoat chiqindilari qayta ishlanadi. Natijada ilgari xorijdan import qilingan ayrim qimmatbaho kimyoviy xomashyolar o‘rnini mahalliy qayta ishlangan xomashyo bosmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Ko‘kdala allaqachon xaritadagi ma’muriy birlik chegarasidan chiqib, ulkan ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishning amaliy ifodasiga, ramzlaridan biriga aylanib bo‘ldi. Oldin deyarli barcha imkoniyatlari cheklangan hudud qisqa vaqt ichida zamonaviy qiyofa kasb etib, rivojlanishning yangi sur’atini ko‘rsatyapti. Yo‘llar, maktablar, shifoxonalar, ish o‘rinlari, ma’rifatga, san’atga berilgan e’tibor — bularning barchasi xalqparvar siyosat samarasidir. Bugungi zamonaviy tumanlar qatoridan Ko‘kdala ham munosib o‘rin egallayotgani, hududda hayot sifatining o‘zgarib, ishbilarmonlik muhiti, yo‘l-transport va ijtimoiy infratuzilmaning shiddat bilan taraqqiy etib borayotgani bu o‘sish va o‘zgarishlar vaqtinchalik tashabbus emas, balki aniq hisob-kitobga asoslangan tizimli taraqqiyot natijasi ekanini ko‘rsatmoqda.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-846.
29305 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Веб-сайт: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60